

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**  
**FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI**  
**IJTIMOIIY-IQTISOD FAKULTETI**

**Ijtimoiy ish kafedrası**

**“Ijtimoiy ish” yo'nalishi bitiruvchisi**

**Tursunaliyev Behzodning**

**“Odam savdosi jabrdiydalarini ijtimoiy reablitatsiya qilishning sotsiologik tahlili” mavzusidagi**

**BITIRUV**  
**MALAKAVIIY ISHI**

**Ilmiy rahbar: B.Tolibov**

**“Ijtimoiy ish” kafedrası**

**o'qituvchisi.**

**Farg'ona – 2019 yil**

## MUNDARIJA

**Kirish**..... 3-8 betlar

### **I. BOB. ODAM SAVDOSI TUSHUNCHASINING QIYOSIY-TARIXIY, ILMIY-NAZARIY TAHLILI**

1.1. Odam savdosi hodisasining tarixiy tahlili.....8-14 betlar

1.2. Odam savdosi tushunchasi va uning tizimli elementlari.....14-20 betlar

### **II. BOB. ALOHIDA EHTIYOJLI INSONLAR GURUHLARINI IJTIMOIY MOSLASHTIRISH JARAYONLARI.**

2.1. Alohida ehtiyojli insonlar guruhlarini ijtimoiy moslashtirishni tashkil etishning metodologik jihatlarini.....20-34 betlar

2.2. O`zbekistonda odam savdosi jabrdiydalarining ijtimoiy qiyofasi .....34-40 betlar

### **III. BOB. O`ZBEKISTONDA ODAM SAVDOSI QURBONLARINI IJTIMOIY REABILITATSIYASI JARAYONINING TAHLILI**

3.1. O`zbekistonda odam savdosiga qarshi kurash jarayonining tizimiy tahlili.....40-48 betlar

3.2. Odam savdosi jabrdiydalarini ijtimoiy reabilitatsiyasining O`zbekiston modeli..... 48-55 betlar

**Xulosa**.....55-59 betlar

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati**.....59-64 betlar

## Kirish

**Mavzuning dolzarbligi.** O`zbekiston mustaqillikka erishish arafasida ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli eng og`ir bo`lgan, mustamlaka o`lkalardan biri edi. O`sha vaqtlarda O`zbekiston rahbari bo`lgan birinchi prezidentimiz I.Karimov “Respublika barcha ijtimoiy va iqtisodiy ko`rsatkichlar bo`yicha Ittifoqdagi o`rtacha darajadan ham ancha orqada bo`lib, mamlakatda oxirgi o`rinlardan birida turganligini” ma`lum qilgan edi<sup>1</sup>. Aholi yashash sharoitlarining nihoyatda og`irligining asosiy omillaridan biri – ishsizlik bo`lib, bozor munosabatlariga o`tilishi munosabati bilan, mavjud bir millionlik ishsizlar safiga yana boshqalari qo`shilishi vaziyatni yanada og`irlashtirdi<sup>2</sup>. Natijada, XX asr 90-yillarining o`rtalariga kelib, Respublikamizda ish bilan band bo`lmagan aholining katta guruhi paydo bo`ldi. Xalqimiz mentaliteti shakllangan mehnatsevarlik omili – ularning bir qismini ish izlab, O`zbekistondan tashqariga chiqib ketishlariga sabab bo`ldi. Rossiya Federatsiyasi yoki Qozog`iston Respublikasi kabi iqtisodiyoti tabiiy boyliklari evaziga rivojlanganroq, shu bilan birga qonunchilik yaxshi rivojlanmagan mamlakatlarda norasmiy ravishda yashayotgan va ishlayotgan O`zbekistonliklarning odam savdosi kabi manfur jinoyat qurbonlariga aylanib qolish imkoniyatlari keskin oshib ketdi. Shu bilan birga, xalqaro uyushgan jinoyatchilikning asosiy daromad manbalaridan biri bo`lgan ushbu jinoiy faoliyat mustaqil hayot yo`liga endi o`tgan, qonunchilik bazasi hali to`liq shakllanmagan va aholining huquqiy madaniyati ham hali yuksak rivojlanmagan davlatlar, xususan O`zbekistonda ham avj ola boshladi, turli arab mamlakatlari va rivojlangan davlatlarga O`zbekistonlik xotin-qizlar va yosh bolalarning sotib yuborilishi holatlari ko`payib boshladi.

Bu uzoq davom etishi mumkin emasdi va tez orada Respublika rahbariyati odam savdosiga qarshi kurash, uning huquqiy bazasini shakllantirish va amaliyotga tatbiq etish bo`yicha keng qamrovli ishlarni amalga oshira boshladi. Ana shu harakatlar qatorida Respublikada odam savdosi qurbonlarini ijtimoiy

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O`zbekiston, 2011.-B.166.

<sup>2</sup> O`sha joyda, – B. 211.

hayotga qayta moslashtirish ishlarini jonlantirishdan iborat edi. Bu borada maxsus reabilitatsiya markazi tashkil qilindi. Markaz oldiga jabrdiydalarni tibbiy va ruhiy tiklash bilan birga ijtimoiy hayotga ham qayta moslashtirish vazifasi qo'yilgan edi.

Bizning mana shu qisqa davr yangi tariximizda mustaqillikka erishish, milliy davlatchiligimiz, ertangi kunimizni qurishda, yurtimizni turli balo-qazolardan asrashda, O'zbekistonimizning rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirishi, jahon maydonida munosib obro' topishida eng asosiy omillar nima deb so'rasa, men, boshqa mezonlarni inkor etmagan holda, bir fikrni alohida ta'kidlab aytgan bo'lardim: bu yo'ldagi eng muhim omil – bu ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan sog'lom, hych kimdan kam bo'lmasdan, boshini baland ko'tarib yashaydigan, Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga, xalqimiz intilayotgan kelajagi buyuk davlatni barpo etishga qodir bo'lgan barkamol avlodimiz, desam, ayni haqiqatni aytgan bo'laman<sup>1</sup> -deydi O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I. A. Karimov. Bu yosh avlodni odam savdosi kabi xavflardan ijtimoiy himoyalay, uning uning qurboniga aylanib qolgan yoshlarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish bugunning dolzarb masalasidir.

Rivojlangan davlatlar tajribasi, odam savdosi qurbonlarini ijtimoiy hayotga moslashtirishda eng samarali usul – ular bilan ijtimoiy ish va madaniy faoliyat olib borish ekanligi ilmiy tadqiqot ishimizning dolzarbligini belgilaydi. Shuningdek, quyidagilar ham bitiruv malakaviy ishi dolzarbligini izohlaydi:

- ◆ mavzu doirasida shu paytga qadar maxsus ilmiy tadqiqotlarning yaratilmay kelayotganligi;
- ◆ odam savdosi qurbonlarini ijtimoiy reabilitatsiya qilish imkoniyatlarining real holati, mavjud ahvoli maxsus sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish orqali aniqlanmay kelayotganligi;

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Amalga oshirilgan malga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug' kelajagimizning asosiy omilidir // Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 21 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma.. – T.: O'qituvchi, 2014. – B. 14

- ◆ odam savdosi qurbonlarini ijtimoiy reabilitatsiya qilish tizimini tashkil qiluvchi ijtimoiy institutlar faoliyatini bugungi kun talablari darajasiga olib chiqish ehtiyojining oshganligi;
- ◆ odam savdosi qurbonlarini hayotga qayta moslashtirish jarayonini alohida ehtiyojli shaxslar bilan ishlashning zamonaviy texnologiyalari, xususan ijtimoiy-madaniy faoliyat texnologiyalarining bugungi darajalari bilan muvofiqlashtirish zaruratining oshganligi.

**Mavzuning o`rganilganlik darajasi.** Odam savdosi muammosi qadimiy hodisa bo`lishi bilan birga, XX asrlarning oxirlarigacha ilmiy jamoatchilikni unchalik qiziqtirmagan edi. XX asrlarning oxirlariga kelib, uyushgan jinoyatchilik ega bo`layotgan boylikning asosiy qismini tashkil eta boshlagach, xalqaro tashkilotlar, xususan BMT va uning tarkibidagi Xalqaro Mehnat tashkiloti tomonidan jamoatchilik e`tibori tortila boshlandi. 2000 yilda qabul qilingan, Palermo bayonnomasi nomi bilan mashhur “Odamlar, ayniqsa ayollar va bolalar savdosini oldini olish va bartaraf etish, buning uchun jazolash haqida”gi Konventsiya hamda unga 2003 yilda qo`shimcha sifatida qabul qilingan odam savdosi, ayniqsa ayollar va bolalar savdosining oldini olish, bartaraf etish va jazolash bo`yicha qo`shimcha protokollari qabul qilingan edi<sup>1</sup>. Ushbu hujjatlarda odam savdosi tushunchasi, uning oldini olish, bartaraf etish, jinoyatchilarni jazolash va qurbonlarni reabilitatsiyasi bo`yicha xalqaro standartlar aks etgan.

Mazkur xalqaro hujjatlar ta`siri ostida odam savdosini kriminologiya, kriminalistika va boshqa huquqiy fanlar doirasida tadqiq etish keng rivojlanib ketdi. Umuman olganda, odam savdosi qurbonlarini ijtimoiy moslashtirishga bag`ishlangan ishlarni ikkita katta guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhni aholi turli ijtimoiy qatlam va guruhlarini ijtimoiy muhofazalash va ijtimoiy ish olib borish xususiyatlarini o`rganish doirasida odam savdosi qurbonlari bilan

---

<sup>1</sup> Протокол о предупреждении и пресечении торговли людьми, особенно женщинами и детьми, и наказании за нее, дополняющий конвенцию Организации Объединенных Наций против транснациональной организованной преступности. / Сборник методических пособий по вопросам борьбы с торговлей людьми. ООН, Нью-Йорк, 2008. 534-стр.

ham ijtimoiy ish olib borishni o`rganishga bag`ishlangan asarlar tashkil etsa, ikkinchi guruhga huquqiy fanlar doirasida odam savdosi hodisasining turli jihatlarini jinoiy faoliyat sifatida o`rganishga bag`ishlangan ishlar kiritilishi mumkin.

Ayollar savdosi va mehnat migratsiyasini sotsiologiya fani nuqtai nazaridan o`rganishga bag`ishlangan dastlabki ilmiy tadqiqot ishlaridan biri sifatida, E.V.Tyurkanova hamda M.M.Malishevalarning ishini ko`rsatish mumkin<sup>1</sup>. Unda ayollar mehnat migratsiyasining bugungi holati, tarkibiy qismlari, tuzilmasi, yo`nalishlari, xorijda ish izlash jarayonini tezlashtiruvchi hamda sekinlashtiruvchi omillar tahlil etilgan, migratsion jarayonlarning huquqiy bazasi, mehnat resurslari migratsiyasi, jumladan xorijdan kirib kelayotgan ishchi kuchiga nisbatan davlat siyosati qiyosiy o`rganilgan.

O`zbekistonda ushbu yo`nalishdagi dastlabki tadqiqot ishlarini olib borayotgan tadqiqotchi sifatida, Mehnat va aholi bandligi vazirligi qoshidagi “Odam savdosi rehabilitatsiya Markazi” ijtimoiy xodimi Z.Farhodovanning tadqiqot ishlarini keltirish mumkin<sup>2</sup>.

Ikkinchi guruhga turli davlatlarning odam savdosi jinoyatini oldini olishga bag`ishlangan qonunchiligini (F.L.Sinitsin<sup>3</sup>), jinoiy migratsiya, uning o`ziga xos jihatlarini (E.E.Metelev<sup>4</sup>) tahlil qilishga bag`ishlangan dissertatsion tadqiqotlar va E.V.Evstifeevaning insonning shaxsiy erkinligiga qarshi jinoyatlar uchun jinoiy-huquqiy javobgarlikning nazariy masalalarini o`rganishga bag`ishlangan monografiyasi<sup>5</sup> kabi tadqiqot ishlari misol bo`lishi mumkin. O`zbekiston Respublikasida M.X.Rustamboev odam savdosining kriminologik va jinoiy-huquqiy jihatlarini o`rgangan<sup>6</sup>.

---

<sup>1</sup> Тюрюканова Е.В., Мальшева М.М. Женщина. Миграция. Государство. - М., 2001.

<sup>2</sup> Farhodova Z. Odam savdosi – asr vabosi. // Inson va qonun. 2012 yil 22 may. 23-son

<sup>3</sup> Синицын Ф.Л. Международное законодательство по проблеме торговли людьми. - Пермь, 2000.

<sup>4</sup> Метелев Е. Криминальная миграция: характеристика и предупреждение: дис. ... канд. юрид. наук. - Омск, 1997.

<sup>5</sup> Евстифеева Е.В. Теоретические проблемы уголовно-правовой ответственности за торговлю людьми: дис. ... канд. юрид. наук. - Саратов, 2002.

<sup>6</sup> Rustambayev M.X. Odam savdosi. – T.: TDYuI nashriyoti, 2009.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifasi.** Mazkur bitiruv malakaviy ishining maqsadi odam savdosi qurbonlarining ijtimoiy reabilitatsiyalashni sotsiologik tahlil etishdan iborat.

Mazkur maqsadlarni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- Odam savdosi hodisasining tarixiy tahlilini amalga oshirish;
- Odam savdosi tushunchasi va uning tizimiy elementlarini yoritish;
- Alohida ehtiyojli insonlar guruhlarini ijtimoiy moslashtirish jarayonlarini tashkil etishning metodologik jihatlarini yoritish;
- O`zbekistonda odam savdosi jabrdiydalarining ijtimoiy qiyofasini tahlil etish;
- O`zbekistonda odam savdosiga qarshi kurash jarayonining tizimli tahlil etish;
- Odam savdosi jabrdiydalarini ijtimoiy reabilitatsiyasining O`zbekiston modelini yoritish.

**Tadqiqotning ob'ekti va predmeti.** Mamlakatimizda bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri bo'lgan odam savdosi jabrdiydalariga ijtimoiy xizmat ko'rsatish va reabilitatsiya qilish jarayoni muammolari borasida amalga oshirilayotgan islohotlar va amaliy tadbirlarning mazmun-mohiyati va uni o'rganish jarayoni.

**Mavzuning nazariy-uslubiy asoslari.** O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirizoyevning asarlari, nutq va maqolalarida ilgari surilgan g'oya va fikrlar mavzuni yoritishda nazariy uslubiy asos bo`lib xizmat qiladi. Shuningdek, mavzu doirasidagi ilmiy adabiyotlar mavzuni keng yoritilishiga nazariy asos vazifasini o`tadi.

Mavzuning yoritishda bugungi kunda ilmiy izlanishlar olib borishda qabul qilingan haqqoniylik, xolislik, davriylik kabi tamoyillarga tayanildi.

**Malakaviy ishning tarkibiy tuzilishi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yhatidan iborat.

# I. BOB. ODAM SAVDOSI TUSHUNCHASINING QIYOSIY-TARIXIY, ILMIY-NAZARIY TAHLILI

## 1.1. Odam savdosi hodisasining tarixiy tahlili

Odamning ikkinchi bir odam tomonidan sotilishi, sotib olinishi va uning ixtiyoriga zid ravishda majburiy mehnat yoki boshqa maqsadlarda foydalanish hodisasi juda qadimiy bo`lib, eramizning XIX asrlarigacha ham butun dunyoda keng tarqalgan edi. 1926-yilda Millatlar ligasi tomonidan “Qullik to`g`risida”gi Konventsiyada shaxsga har tomonlama xususiy mulk sifatida qaralishi qullik ekanligi bildirilib, barcha davlatlar va ilg`or xalqaro jamoatchilikni unga qarshi kurashga chaqirilgan edi<sup>1</sup>. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari to`g`risidagi umumjahon Deklaratsiyasida ham, inson huquqlari masalalariga tegishli boshqa barcha me`yoriy hujjatlarida ham, qulchilikka nisbatan salbiy munosabat bildiriladi. Xususan, Inson huquqlari to`g`risidagi umumjahon Deklaratsiyaning 4 bandida o`z ixtiyoriga ko`ra mehnat qilishdan bosh torta olmaydigan har qanday shaxsga qul sifatida qaralishi aytiladi<sup>2</sup>.

So`nggi 5000 yil davomida qullik deyarli hamma joyda mavjud bo`lgan. eng mashhur quldorlik davlatlari sifatida Qadimgi Gretsiya va Rimni eslash mumkin, qadimgi Xitoydagi “Si” tushunchasi ham, qullik holatini anglatib, eramizdan avvalgi ikkinchi ming yillik o`rtalariga borib taqaladi.

Ishlab chiqarishda samaradorlikka erishishda mehnat taqsimoti muhim ahamiyat kasb etib, og`ir jismoniy mehnat bilan shug`ullanishga hamma ham rozi bo`lavermaydi. Texnologiyalar yaxshi taraqqiy etmagan davrlarda ozgina mahsulot ishlab chiqarish uchun ko`p mehnat talab qilingan va bu sharoitda tekin jismoniy kuch qadrlangan. Aynan shu sababli harbiy asirlarni qatl qilish o`rniga og`ir mehnatga majburlash orqali foydalanishga uringanlar. erkinlikdan

---

<sup>1</sup> Конвенция Лиги наций “О рабстве”. / Сборник методических пособий по вопросам борьбы с торговлей людьми. ООН, Нью-Йорк, 2008.

<sup>2</sup> Протокол о предупреждении и пресечении торговли людьми, особенно женщинами и детьми, и наказании за нее, дополняющий конвенцию Организации Объединенных Наций против транснациональной организованной преступности. / Сборник методических пособий по вопросам борьбы с торговлей людьми. ООН, Нью-Йорк, 2008.



mahrum qilingan insonlar xo`jayinning xususiy mulkiga, amalda qulga aylanib qoladilar.

Qul oddiy “gapiradigan” qurol, tirik xususiy mulk hisoblangan. Uning har qanday mehnati mahsuli xo`jayinning xususiy mulkiga aylangan va ayni chog`da, u haqda g`amxo`rlik qilish xo`jayinning zimmasida bo`lgan. Qul xo`jayinning ruxsatisiz rasmiy nikohdan o`ta olmagan, va ruxsat etilgan taqdirda ham, xo`jayin istagan vaqtida uni bekor qilishi mumkin bo`lgan, bolalar ham, uning quliga aylangan. Qul, boshqa buyumlar kabi savdo-sotiqning barcha ko`rinishlari ob`ektiga aylanishi mumkin.

Qulning yashash sharoiti quldorning insoniyligi yoki manfaatparastligiga bog`liq. Birinchisi, bugungi kunda ham kamdan kam uchraydigan holat bo`lsa, ikkinchisi qulga ega bo`lishning og`ir-engilligiga qarab turlicha harakatlanishga majbur qiladi. Qullarni bolaligidan tarbiyalash uzoq davom etadigan, qimmat va “ishlab chiqaruvchilar”ning juda ko`p bo`lishini talab qiladigan jarayon bo`lib, eng kuchli manfaatparast quldor ham qullariga ishlash qobiliyati va umumiy salomatlikni saqlash imkonini beruvchi sharoitlarni yaratib berishga majbur. Biroq sog`lom, etuk qullarga ega bo`lish imkoniyati oson bo`lgan joylarda ularning hayoti og`irlashib boraveradi.

Qul shaxs sifatida huquq sub`ekti bo`lishi mumkin emas. Bu o`z xo`jayiniga nisbatan munosabatlarda ham, uchinchi shaxsga nisbatan munosabatda ham qo`llaniladi. Xo`jayin quliga nisbatan o`zi xohlaganidek munosabatda bo`lishi, hatto uni o`ldirishi ham mumkin bo`lgan. Boshqa odam tomonidan qulni o`ldirilishi esa, xo`jayinning mulkiga tajovuz deb baholangan. Qul tomonidan etkazilgan zararni xo`jayin qoplashga majbur bo`lgan. Quldorlik tuzumining oxirlariga kelibgina, qullar ayrim arzimas huquqlarga ega bo`lishgan.

Urush dastlabki davrlarda qulga ega bo`lishning yagona manbasi bo`lib, dushman jangchilarini asir olish hamda uning hududida yashayotganlarni o`g`irlash orqali qullarga ega bo`lingan. Keyinchalik, quldorlik tuzumi mustahkamlanishi bilan, yangi manbalar hisobiga, birinchi navbatda qullarning

tabiiy ko`payishi hisobiga qullar sonini oshishi yuz berdi. Bundan tashqari, qarz evaziga qarzdorni qulga aylanishi, jinoyatlar uchun qul qilib sotib yuborish, xususan, otaga o`z xotini va bolalarini qul qilib sotib yuborish huquqini musthkamlovchi qonunlar vujudga keldi. Ushbu holatlarning barchasida bir g`oya – qul bu asir degan qarash doimo mavjud bo`lgan va hozirgi kungacha ham saqlanib kelmoqda.

Insoniyatning ibtidoiy davrlarida qullik mavjud bo`lmagan. eng birinchi ma`luotlar som qabilalarining Shumerni ishg`ol qilishi bilan bog`liq hikoyalarda uchraydi. Ularda ishg`ol qilingan xalqlarning o`z xo`jayinlariga bo`ysundirilganligi hikoya qilingan. Qadimgi Mesopatamiyada eramizdan avvalgi uchinchi ming yillik boshlarida ko`plab kichik davlatchalar mavjud bo`lgan va urushda mag`lub bo`lgan davlatni g`olibning vakili boshqargan. Butun mamlakat aholisi barcha huquqlaridan mahrum qilinib, ularning yerlari ham, o`zlari ham g`olibning mulki sifatida qaralgan.

Ibtidoiy davrlarda qullik mavjud bo`lmaganligining asosiy sababi sifatida o`sha davrlarda texnologiyalaning yaxshi rivojlanmaganligi natijasida oziq-ovqat etishmasligi, o`ziga yetarli ovqatiga ega bo`lmaganlar uchun qul ortiqcha dahmaza ekanligi ko`rsatiladi. Shu boisdan, dastlabki davrlarda umuman mavjud bo`lmagan qullik ishlab chiqarish imkoniyatlarining oshishi va oziq-ovqat zahiralarning ko`payishi bilan asta-sekin qullarning katta guruhlari paydo bo`lishiga olib keldi.

Dastlabki davrlarda jangda mag`lub bo`lgan xalqning erkaklari qirib tashlangan va faqat ayrim iste`dodlilarigina saqlab qolingan, asosan ayollar bola tug`ish, jinsiy ekspluatatsiya hamda uy-xo`jaligida ishlatish uchun qul qilingan. Ayollarni jismoniy jihatdan kuchsiz ekanligi ham, ularni qul sifatida saqlab turishni osonlashtirar edi.

Qishloq xo`jaligini keng rivojlanishi bilan, erkak qullrga ham ehtiyoj oshib ketdi. Umuman, qul mehnatining og`ir sharoitlarda ishlashni talab qiladigan qishloq xo`jaligi bilan bog`liqligi bugungi kungacha ham saqlanib kelmoqda. Sababi, bir tomondan qishloq xo`jaligida og`ir jismoniy qo`l mehnati

ko`p talab qilinsa, ikkinchi tomondan, qul o`zi iste`mol qiladiganidan ko`proq oziq-ovqat yetishtiradi. Shu boisdan, qul saqlash iqtisodiy jihatdan ham foydali bo`la boshladi va quldorlik tuzumi tez rivojlanib ketdi. Bu tuzum antik davrlardan XVIII asr oxirlarigacha, ayrim joylarda esa, keyinchalik ham mavjud bo`lib keldi.

Quldorlik tuzumida qullar ham ikkita toifaga ajratilgn: uy qulari va dalada ishlaydigan qullar. Uy qullari yashash sharoiti ancha yaxshi, ko`pincha quldor oilasining a`zosi kabi yashagan. Qolgan qullar esa, og`ir ahvolda, uy hayvonlari kabi, ba`zan, ulardan hamog`irroq ahvolda yashaganlar. Tuzum o`ziga xos huquq tizimini ham yuzaga keltirgan. Qochoq yoki isyonkor qullarni jazolashga qaratilgan dahshatli qoidalar tizimi ishlab chiqilgan. Biroq, shunga qaramay qullarning qochib ketishi va qo`zg`olonlari to`xtamagan.

Ilm-fan va madaniyatning rivojlanishi bilan, qullarning alohida toifasi – qimmatbaho qullar paydo bo`ldi. Ular – aktyor-qullar, o`qituvchi-qullar, tarjimon yoki kotiblar bo`lganlar. Ba`zan qulning bilimlari quldornikidan bir necha barobar yuqori bo`lgan, biroq bu ularni hayotini bir oz bo`lsada, yengillashtirmagan.

Vaqt o`tishi bilan, uzoq rivojlanish natijasida qullarning ahvolida yaxshi tomonga o`zgarishlar amalga oshgan. O`z xo`jaligiga oqilona yondasha boshlagan xo`jayinlar qullariga ham g`amxo`rlik ko`rsata boshladilar. Bu holat xavfsizlik nuqtai nazaridan ham yuzaga kelgan bo`lib, ko`pincha qullar tubjoy ozod aholiga qaraganda bir necha barobar oshib kegan edi. Bu sharoitda, ularga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo`lmaslik ayanchli oqibatlariga olib kelishi mumkinligini ko`plab tarixiy hodisalar ko`rsatib bergan edi. Ijobiy o`zgarishlar avvaliga diniy kitoblarda, keyinchalik esa, me`yoriy qoidalarda ham o`z aksini topgan. Albatta, qonunlarga ko`ra qullar huquqda ozod insonlarga tenglasha olmaganlar, biroq ularni endi o`ldirganlik yoki mayib qilganlik uchun jazolanish mumkin edi. Qulni ozod qilish, xo`jayindan homilador bo`lgan qul ayol va undan tug`ilgan bolaning holatini tartibga soluvchi qoidalar joriy qilingan.

Diniy ahkomlar, Evopada xristian dini, Sharqda islom dini quldorlikka qarshi kurashga chorlovchi qadriyatlarni singdira boshladi. Ma`lum vaqt o`tgach, qullarni saqlab turish iqtisodiy jihatdan ham zararli bo`lib bora boshladi va asta-sekin Yevropa davlatlarida quldorlik tuzumi barham topa boshladi. Qullar asosan uy xizmatchilari sifatida saqlanib qolganlar. Dala ishlarida qullardan foydalanish esa, iqtisodiy samara keltirmay qo`ydi. Natijada, ular mehnatidan voz kechila boshlandi. Faqat mo`g`ullar yoki Skandinaviya vikinglari tomonidan bosqinchilik va talon-taroj orqali asir olingan slavyanlar Yevropa va O`rta Sharq qul bozorlarini to`ldirishda davom etib kelgan.

XV asrlarga kelib, Amerika qit`asining kashf qilinishi va Afrika xalqlarining mustamlakaga aylantirilishi bilan, quldorlik yangidan avj oldi. Afrikalik qullarning millionlab vakillari Amerikadagi dehqonchilik plantatsiyalariga olib borib ishlatila boshlandi.

Amerikada dehqonchilik qilish uchun katta-katta hududlarga ega bo`lgan Yevropaliklarda plantatsiyalarda ishlatish uchun ishchi kuchiga katta ehtiyoj paydo bo`lgan edi. Ayni shu vaqtda ishg`ol qilingan Afrika xalqlarining aksariyatida quldorlik tuzumi avj olgan bo`lib g`oliblarning mag`lublarni qulga aylantirishi oddiy hol sifatida qaralar va oq tanlilarga mag`lub bo`lgan qora tanli aholi o`zining qullik holatini e`tirozsiz qabul qilar edi. Shuningdek, qabilalarga bo`linib yashayotgan xalqlar, kuchsizroq qabilalarning a`zolarini tutib olib, Yevropaliklarga sotishdan katta foyda olar edilar. Natijada, tez orada Amerika qit`asini afrikalik qullar to`ldirib tashladi. Ma`lumotlarga qaraganda, AQShning o`ziga afrikalik qullarning 13 million nafari keltirilgan. Amerikaga bitta qul etib kelgan bo`lsa, bir nechtasi qo`lga olishda va olib kelishda, yo`lda qirilib ketgan. Ushbu davrda Afrika qit`asida 80 million kishi o`ldirilgan yoki qul qilib olib chiqib ketilganligi ma`lum.

AQShda fuqarolar urushida quldorlik avj olgan janubiy shtatlarning qullikni bekor qilish tarafdori bo`lgan shimolliklar tomonidan mag`lub etilishi oxir-oqibat ushbu mamlakatda quldorlikning barham topishiga olib keldi.

Braziliyada 1850 yilda chetdan qullarni olib kelishni ta'qiqlash to'g'risida qonun qabul qilingan bo'lsa, 1866 yilda monastirlar va ayrim diniy muassasalarning barcha qullari ozod qilingan. 1871 yilda Braziliyada tug'ilgan barcha bolalar ozod deb e'lon qilindi, imperatorga tegishi va boshqa davlat muassasalaridagi qullar ozod deb e'lon qilindi, 1885 yilda esa, 60 yoshdan oshgan qullar to'liq ozod qilindi. 1888 yilga kelib, ushbu mamlakatda quldorlik butunlay ta'qiqlanishi to'g'risida qonun qabul qilingan.

Quldorlik tuzumi Amerika davlatlarida XIX asrlargacha ham davom etib kelgan. Ularning teng huquqliligi esa, faqat XX asrdagina ta'minlandi, deyish mumkin. Biroq, YAqin Sharq mamlakatlaridagi quldorlik tuzumi XIX asr oxiri XX asr boshlarigacha ham davom etib keldi. Buxoro amirligidagi qullarning ayanchli ahvoli tasvirlangan Sadridin Ayniyning "Qullar" asari, bizning o'lkamizda XX asr boshlarigacha ham, qullar mavjud bo'lganligini ko'rsatadi. XX asr davomida asta-sekinlik bilan dunyodagi barcha mamlakatlarda quldorlik tuzumi rasman barham topdi. eng oxiri bo'lib, Mavritaniyada quldorlik tuzumiga barham berilgan.

Afrika va Osiyoning ayrim davlatlarida xalqaro hamjamiyatning bosimi ostida quldorlik tuzumi rasman bekor qilingan bo'lsada, norasmiy tarzda hanuzgacha saqlanib kelayotgan holatlar mavjud. Ular ko'proq uy xo'jaligida an'anaviy tarzda qullar mehnatidan foydalanish kabi odatlarda namoyon bo'ladi. Shuningdek ayrim rivojlangan mamlakatlarda ham, xususan Rossiyada yashirin ravishda og'ir qo'l mehnati talab qilinadigan joylarda jinoiy ravishda qullar mehnatidan foydalanish hollari uchrab turibdi.

Odam savdosi yoki inglizcha trafik - "traffic" nomi bilan atalayotgan qullikning zamonaviy ko'rinishiga qarshi jahon hamjamiyati, ilg'or jamoatchilik tomonidan keng ta'qib ostiga olinmoqda. XXI asrda inson huquqlariga qarshi jinoyatning eng og'ir ko'rinishi sifatida baholanayotgan odamlarni qul kabi sotish va sotib olish, ularni ixtiyoriga zid ravishda foydalanish, mehnat qilishga majburlash va shu kabilarga qarshi faoliyat dunyodagi barcha davlatlar tomonidan, BMT ning xalqaro huquqiy normalari asosida amalga oshirilmoqda.

## 1.2. Odam savdosi tushunchasi va uning tizimli elementlari

Odam savdosi inson huquqlarini ta'minlash, xalqaro uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash, inson, ayniqsa insoniyatning zaif qatlami bo'lgan ayollar va bolalarga nisbatan turli zo'rvonliklarning oldini olish kabi muammolar bilan bog'liq bo'lgan mazkur hodisa dunyo jamoatchiligini chuqur tashvishlantirayotganligi, barcha davlatlarning o'zaro hamkorlikda faoliyat yuritishlarini talab qilayotganligi sababli, Birlashgan Millatlar Tashkilotining keyingi vaqtlarda eng ko'p e'tibor qaratilayotgan faoliyat yo'nalishlaridan biriga aylanib qoldi. Bu bejizga bo'lmay, mazkur tashkilot hisob-kitoblariga ko'ra, bugungi kunda dunyo bo'yicha taxminan 27 million odam qullik holatiga tushib qolgan. Bu borada eng og'ir holat Nepal, Sudan, BAA, Hindiston, Gabon, Gaiti, M'yanma kabi davlatlarda kuzatilmoqda. AQSh Davlat departamenti ma'lumotlariga ko'ra, dunyo miqyosida har yili o'z ixtiyoriga zid ravishda 4 million atrofidagi odamlar sotiladi, sotib olinadi, tutib turiladi va tashiladilar. Ayrim, xalqaro ekspertlarning aniqlashlaricha, odam savdosidan olinayotgan yillik daromad 9,5 milliard dollarga yetayotgan bo'lsa, boshqa mutaxassislar mazkur bozorning umumiy aylanma mablag'lari 19 milliard ekanligini ma'lum qilganlar<sup>1</sup>.

“Trafek” (inglizcha traffick-odam savdosi) – bu qullikning zamonaviy ko'rinishi bo'lib, inson huquqlarini juda qo'pol va shafqatsiz ravishda buzish bilan amalga oshiriladi. Inson manipulyatsiya ob'ektiga aylantiriladi va uni bir buyum kabi xususiy mulk hisoblaydilar. Odam savdosining ko'proq tayaniladigan ta'rifi xalqaro amaliyotda Palermo bayonnomasi nomi bilan mashhur “Odamlar, ayniqsa ayollar va bolalar savdosini oldini olish va bartaraf etish, buning uchun jazolash haqida”gi bayonnomada aks etgan.

Kuch ishlatish yoki majbur qilishning boshqa shakllari, o'g'irlash, firibgarlik, aldov, hokimiyatdan yoki ahvoli nochorligidan foydalanish yoxud bir shaxsni nazorat qiluvchi ikkinchi shaxsni to'lov yoki foyda keltirish orqali sotib

---

<sup>1</sup> Шруб М. П. Система противодействия торговле людьми в правоприменительной практике зарубежных государств / М.П. Шруб [http://revolution.allbest.ru/law/00024820\\_0.html](http://revolution.allbest.ru/law/00024820_0.html)

olish yo`li bilan odamlarni foydalanish maqsadida yollash, tashish, topshirish, yashirish hamda qabul qilib olish odam savdosi hisoblanadi. Kamida boshqalarni fohishabozlikka majburlash yoki jinsiy majburlashning boshqa shakllaridan foydalanishni, mehnat qilish va xizmat ko`rsatishga majburlashni, qullik yoki qullikka o`xshash odatlarni, majburiy holatda saqlash yoki tana a`zolarini ajratib olish kabilar foydalanishni anglatadi (Bayonnomaning 3-bandi)<sup>1</sup>.

O`zbekiston Respublikasining 2008 yil 18 martda qabul qilingan “Odam savdosiga qarshi kurash to`g`risida” gi Qonuniga ko`ra esa, mamlakatimizda odam savdosi deganda “kuch bilan tahdid qilish yoki kuch ishlatish yoxud boshqa majburlash shakllaridan foydalanish, o`g`irlash, firibgarlik, aldash, hokimiyatni suiiste`mol qilish yoki vaziyatning qaltisligidan foydalanish orqali yoxud boshqa shaxsni nazorat qiluvchi shaxsning roziligini olish uchun uni to`lovlar yoki manfaatdor etish evaziga og`dirib olish orqali odamlardan foydalanish maqsadida ularni yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish. Odamlardan foydalanish boshqa shaxslarning fohishaligidan foydalanishni yoki ulardan shahvoniy foydalanishning boshqa shakllarini, majburiy mehnat yoki xizmatlarni, qullik yoki qullikka o`xshash odatlarni, erksiz holat yoxud inson a`zolari yoki to`qimalarini ajratib olish” tushuniladi<sup>2</sup>.

Odam savdosi tushunchasini chuqurroq tushunish uchun uning ko`rinishlariga to`xtalish lozim. Ular quyidagilardan iborat:

- 1) Jinsiy ehtiyojni qondirish maqsadida foydalanish (fohishabozlik va pornografiya). Bu maqsadda odam savdosi butun dunyodagi davlatlar, ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasi yoki geografik joylashgan o`rnidan qat`iy nazar keng tarqalgan bo`lib, ushbu turdagi jinoiy faoliyat davlatlarning ichida ham, davatlararo ham keng miqyosda amalga oshirilmoqda;

---

<sup>1</sup> Протокол о предупреждении и пресечении торговли людьми, особенно женщинами и детьми, и наказании за нее, дополняющий конвенцию Организации Объединенных Наций против транснациональной организованной преступности. / Сборник методических пособий по вопросам борьбы с торговлей людьми. ООН, Нью-Йорк, 2008. 534-стр.

<sup>2</sup>O`zbekiston Respublikasining Qonuni. “Odam savdosiga qarshi kurash to`g`risida”. 3-modda.

- 2) Tanadan foydalanish (tana a`zolari transplantatsiyasi, surrogat onalik).  
Bugungi kunda tibbiy maqsadlarda tana `zolarini ishlatish tijorat turi sifatida katta foyda keltirmoqda. Shu boisdan, u bilan bog`liq jinoyatlar, ayniqsa odam savdosi ham rivojlanmoqda. Bu maqsadda ko`proq yosh bolalar va sog`lom yosh organizmga ega shaxslar tibbiyoti rivojlangan mamlakatlarga olib chiqib ketiladi. Surrogat onalik esa, o`z qomatini buzmaslik uchun farzand ko`rishni istamayotgan g`arbliklar tomonidan o`ylab topilgan bo`lib, farzand ko`rish uchun boshqa ayol tanasidan, ayrim hollarda bu ayolning ixtiyoriga zid ravishda foydalanishdir. Bu ham, ko`proq iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda kuzatilsada, ba`zan yashirin holatda ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarda ham uchrab turadi.
- 3) Mehnatdan foydalanish ikki xil ko`rinishda bo`lib, birinchisi qonuniy biznesda, ko`pincha og`ir sharoitda ishlash talab qilinadigan sohalarda majburlab ishlatish. O`zbekistonlik jabrdiydalarning aksariyati bugungi kunda odam savdosining ushbu ko`rnishi qurboni bo`lmoqdalar. Ikkinchisi esa, noqonuniy, ko`pincha yashirin faoliyatda foydalanish. Bunga, giyohvand vositalar ishlab chiqish va uni tashish, bolalar mehnatidan foydalanish kabilar misol bo`lishi mumkin. Bu ko`rinishdagi jinoyatlar ham, mamlakatimizda uchrab turganligi achinarlidir. Ayniqsa, kelajagimiz bo`lgan bolalar mehnatidan noqonuniy, ya`ni ularni jismoniy, ruhiy va aqliy rivojlanishiga zarar keltiradigan holatda foydalanish bilan bog`liq jinoyatlarni hech qanaqasiga oqlash mumkin emas.
- 4) Foydalanish maqsadidagi nikoh. Uy xo`jaligida foydalanish, majburiy homiladorlik va bola tug`ish, kasallar va qariyalarga qarashga majburlash kabi holatlarni o`zida ifoda etuvchi mazkur ko`rinish ayniqsa milliy madaniyat va turmush tarzi bilan bog`liq holatda bo`lsa, uni bartaraf etish o`ta og`ir kechadi. Masalan, musulmonlar ko`p yashaydigan hududlarda islom ahkomlarini noto`g`ri talqin qilish orqali ayollarni yarim qul holatiga tushirib qo`yiladi. Vaholanki, ayollarni ham, erkaklar kabi teng ravishda bilim olishlari lozimligi to`g`risidagi g`oyalarni birinchi bo`lib



ilgari surgan, inson zoti, xoh ayol bo`lsin, xoh erkak, bir birlariga qul bo`lishlari mumkin emasligini o`z ahkomlarida mustahkamlab qo`ygan ma`rifiy dinning insoniyat oldidagi eng katta xizmatlaridan biri ham, insoniyatni quldorlikka qarshi kurashga chorlash edi. Mamlakatimizda ham, eskilik sarqiti sifatida hanuzgacha saqlanib kelayotgan kelinga quldek munosabatda bo`lish, farzandlarimizda mutelik psixologiyasning saqlanib qolishiga olib kelayotgan omillardan biri sifatida qarash lozim va buning har qanaqa ko`rinishlariga qarshi keskin kurashmoq kerak.

5) Tilanchilik, ya`ni bolalar, nogironlar va chaqaloqlardan tilanchilik maqsadida foydalanish. Bu ko`rinish ham, butun dunyo bo`ylab keng tarqalgan bo`lib, davlat qanchalik ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlangan bo`lsa, mazkur jinoiy faoliyatning shunchalik yangidan yangi shakllari o`ylab topiladi.

6) YOsh bolalar savdosi yoki noqonuniy farzandlikka olish. Ushbu turdagi holatlar xalqning madaniyati, ayniqsa huquqiy madaniyatining rivojlanganlik darajasi bilan bog`liq bo`ladi. Masalan, rivojlangan davlatlarda go`yo bu borada muammo yo`qdek ko`rinsada, 2013 yil yanvar'-fevral' oylarida Rossiya matbuotida keng muhokama qilingan va parlamenti tomonidan "Dima YAKovlev" nomi bilan mashhur qonun qabul qilinishiga sabab bo`lgan holatlar hatto AQShda ham, farzandlikka olishda qonunbuzilishlar yoki qonunni chetlab o`tishga urinishlar mavjudligini ko`rsatadi.

Bizning Respublikamizda esa, bir tomondan qonunchilikda ham hali to`liq shakllanmagan jihatlarning mavjudligi sababli, ikkinchi tomondan esa, farzandlikka olinishini jamiyat tomonidan to`g`ri qabul qilmaslik natijasida ushbu holatni atrofdagilardan imkon qadar sir tutishga intilish natijasida kelib chiqayotgan hodisalar yosh bolalar, ayniqsa chaqaloqlar savdosining saqlanib qolishiga sabab bo`lmoqda.

Odam savdosini jinoyat sifatidagi ta`rifidan kelib chiqqan holda, ushbu faoliyatning uchta elementini ajratib ko`rsatish lozim: xatti-harakat, vosita va

maqsad. Xatti-harakat deganda odamlarni aldov yo`li bilan yoki ularning ixtiyoriga zid ravishda yollash, tashish, topshirish, yashirish hamda qabul qilib olish bilan bog`liq harakatlar nazarda tutilsa, kuch ishlatish yoki kuch bilan qo`rqitish, majburlash, o`g`irlash, firibgarlik, aldov, hokimiyatni su`istemol qilish, jabrlanuvchining erksizlik holatidan foydalanish, uni nazorat qilib turgan shaxsdan pul yoki boshqa manfaatdorlik evaziga sotib olish jinoyat vositasi deb qaraladi. Maqsadga esa, foydalanish, jumladan fohishabozlikda ham foydalanish, majburiy mehnat, qullik yoki qullikka o`xshash odatlarga amal qilish hamda tana a`zolarini ajratib olish kabi maqsadlar kiradi<sup>1</sup>.

Odam savdosining potentsal qurbonlarini aniqlash va ularni qullik holatiga tushib qolmasliklarini oldini olish uchun, “xatar guruhi” degan guruhga kiruvchilarning o`ziga xosliklarini alohida o`rganish talab etiladi. Bu borada Yevropa politsiya tashkilotining O`ta og`ir jinoyatlar departamenti Odam savdosiga qarshi kurash guruhi rahbari Stiv Xarvi tomonidan taklif etilayotgan quyidagi sinflashtirish e`tiborga molik<sup>2</sup>:

### **Odam savdosi qurboniga aylanishi mumkin bo`lgan “xatar guruhi” tavsifi**

<b>MEZONLAR</b>	<b>Xatar guruhlari</b>
Yosh	18 yoshgacha bo`lgan bolalar va o`smirlar; ta`lim muassasalarini tamomlayotgan 18 yoshdan 25 yoshgacha bo`lgan yoshlar; 30 yoshgacha bo`lgan ayollar.
Yashash joyi	Kichik shaharlar va qishloqlar aholisi; kichik shaharlar va qishloqlardan ish izlab kelgan migrantlar.
Ma`lumoti	Ma`lumotning quyi darajasi yoki umuman yo`qligi; tugallanmagan o`rta ma`lumot; (oliy yoki o`rta maxsus) kasbiy ma`lumotga ega emaslik yoki tugallanmaganligi.
Bandlik	Ishsizlar, shu jumladan ishsiz bitiruvchilar; doimiy ish o`rniga ega bo`lmagan, tasodifiy ish topish imkoniyatiga ega bo`lganlar; vaqtincha band bo`lgan migrantlar; ixtiyoriy fohishabozlik bilan shug`ullanayotgan ayollar; hordiq chiqarish va model` biznesda band bo`lgan ayollar (ba`zan erkaklar ham); talabalar, ayniqsa o`z uylaridan uzoqda, ko`pincha talabalar turar joylarida yashayotganlar, ko`roq ta`il vaqtida ishlash bahonasi bilan.
Xulq-atvor	Migratsion intilish va bunda norasmiy shakllardan ham foydalanishga tayyorgarlik; xorijda ishlash va turmushga chiqish motivi, ishga joylashtirish (yoki nikoh) agentligi orqali xorijga chiqib ketishga intilish; o`tmishdagi zo`ravonliklar (oiladagi zulm, jinsiy zo`rlash va shu kabilar

<sup>1</sup> Сборник методических пособий по вопросам борьбы с торговлей людьми. ООН, Нью-Йорк, 2008. 2-стр.

<sup>2</sup> Харви С. Торговля людьми в Европейском Союзе: взгляд Европола. / Материалы Международной конференции “Совершенствование международного сотрудничества в противодействии торговле людьми”. Москва, 2009 г. 39-стр.

	qurbonlari) sababli xatarli qadam tashlashga ruhiy moyillik.
Ijtimoiy nochor hamda marginal guruhlariga mansublik	Kam ta`minlangan oilalar kabi xatar guruhiga kiruvchi oilalar bolalari; ichkilikboz ota-onalar bolalari; noqobil oilalar va zo`ravonlik qurboni bo`lgan bolalar; boquvchisini yo`qotgan yoki bolalar uylariga tushib qolgan bolalar; xatar guruhiga kiruvchi oilaning yosh ayol a`zolari va qizlari; giyohvandlar; etim bolalar; o`zini yoki oilasni ta`minlash imoniga ega bo`lmagan yolg`iz onalar; ko`pbolali onalar; migrantlar.
Etnik guruhlar	Etnik ko`pchilikni tashkil etmaydigan guruh a`zolari; nochor ahvoldagi davlatlardan bo`lgan etnik guruhlar; kriminallashtirilgan etnik guruhlar yoki kriminallashtirilgan deb qaraladigan etnik guruh vakillari

Albatta, mazkur guruhlar a`zolari odam savdosi qurbonlariga aylanishadi, deb bo`lmaydi. faqat ushbu guruhlar a`zolarida imkoniyat yuqoriroq. shu boisdan, odam savdosiga qarshi kurashni tashkil etishda ishtirok etayotgan mutaxassislar, mas`ullar va keng jamoatchilikdan ushbu guruhlariga kiruvchi fuqarolar to`g`risida alohida g`amxo`rlik ko`rsatish talab etiladi.

Odam savdosi jinoyatiga qarshi butun dunyoda kurash olib borayotgan ilg`or jamoatchilik mazkur muammo bilan bog`liq yana bir holat, undan jabrlangan insonlarni normal hayotga qaytarish, ularni hayotda o`z o`rnilarini topib olishlariga ko`maklashishdan iborat faoliyatdir. O`zbekiston Respublikasi ham, ushbu hodisaning faol ishtirokchisi bo`lib, mamlakatimizda odam savdosidan jabrlanganlarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish bo`yicha keng tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu tabirlar tizimida qurbonlarning ijtimoiy reabilitatsiyasi muhim ahamiyatga ega bo`lib, zamonaviy ijtimoiy madaniy faoliyatning zamonaviy nazariy qoidalari va uslublarini chuqur o`rgangan holda, amaliyotga qo`llash, odam savdosi qurbonlarini ijtimoiy reabilitatsiyasini professional darajaga ko`tarish imkonini beradi.

## **II. BOB. ALOHIDA EHTIYOJLI INSONLAR GURUHLARINI IJTIMOIY MOSLASHTIRISH JARAYONLARI.**

### **2.1. Alohida ehtiyojli insonlar guruhlarini ijtimoiy moslatirish jarayonlarini tashkil etishning metodologik jihatlari**

Ijtimoiy-madaniy faoliyatning alohida ijtimoiy institut sifatida shakllanishi jamiyatning tarixan rivojlanishi, ijtimoiy tuzilmaning va ijtimoiy kichik tizimlarning o'zgarishiga bog'liq. Urug'-qabila munosabatlari hukmronlik qilgan davrlarda ijtimoiy xatti-harakatlar aralash bo'lib, u ham amaliy, ham taomil xususiyatiga ega bo'lgan. U xoh hosilni yig'ish bilan, xoh to'y yoki qondoshlik intiqomi bog'liq bo'lgan barcha odatlar insoniy faoliyatni tartibga solish, uyg'unlikka erishishga yo'naltirilgan. Shuning uchun ham, an'anaviy madaniyat jamiyat a'zolaridan doimo yozilmagan qonun-qoidalarda e'tirof etilgan va nasliy jamoa me'yorlari va qadriyatlariga muvofiq ravishda ijtimoiy tartibni saqlab qolishga yo'naltirilgan harakatlarni talab qiladi. Jamiyatning keyingi rivojlanishida ijtimoiylashuv va ijtimoiy ko'mak funksiyalarini oila o'z zimmasiga olgan, keyinchalik esa maxsus ijtimoiy institutlar, xususan ijtimoiy ish zimmasiga o'tgan.

Jamiyatning shunday ijtimoiy institutga nisbatan ehtiyoji ko'pgina omillar bilan belgilanadi. Ular orasida zamonaviy madaniyatlarga xos bo'lgan shaxslararo ajralganlik, begonalashuv, oilalarda kechayotgan tuzilmaviy o'zgarishlar ko'proq uchramoqda.

Tarixan ijtimoiy ish fuqarolik huquqlaridan mahrum bo'lgan yoki muhtoj va kambag'al insonlarga yordam ko'rsatilishi ma'nosini bildirar edi. Bugungi kunda ijtimoiy ish xodimlari hayot tarzi, hissiy, ma'naviy, psixologik yoki jismoniy ma'noda tevarak-atrofi sifatining yaxshilanishi zarur bo'lgan insonlar bilan ishlamoqdalar. Kimlar ijtimoiy ish xodimlarining mijozi bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy reabilitatsiyaning muhim tushunchalaridan biri bu mijoz tushunchasidir. Ijtimoiy reabilitatsiya jarayonini tashkil etishda ijtimoiy xodim xizmat ko`rsatadigan mijozlar guruhi quyidagilardan iborat:

- ◆ Oilalar, shu jumladan noto`liq oilalar ham, shuningdek, uydan qochib ketish, qonunbuzarlik, zo`ravonlik yoki boshqa qiyinchiliklar tufayli jiddiy nizolarni kechirayotgan oilalar;
- ◆ Turmush o`rtog`ining tomonidan shafqatsiz munosabatidan aziyat chekayotgan oila yoki farzandli ota-onalar;
- ◆ Nikoh bilan bog`liq jiddiy nizolarga ega bo`lgan juftliklar;
- ◆ Ishsizlik, boquvchisiga ega emaslik, o`qimaganlik va boshqa omillar sababli oilaviy daromadi etarli bo`lmagan individ va oilalar;
- ◆ Qonunga xilof ish tutganlik uchun jazoni o`tagan insonlar va ularning oilalari;
- ◆ Jismoniy va ruhiy kasallik tufayli hayoti qiyinlashgan individ yoki oilalar;
- ◆ Alkogol` ichimliklar yoki narkotiklarga ru`ju qo`yganlar va ularning oilalari;
- ◆ Ota-onasi voz kechgan bolalar yoki bolasiga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo`lganligi sababli ota-onalik huquqidan mahrum bo`lganlarning farzandlari va ularning vasiylari;
- ◆ Resurs va imkoniyatlari kamaygan immigrantlar, qochoqlar, jamiyatdagi ozchilikni tashkil etuvchi millat vakillari, yoki irqiy va boshqa sabab tufayli kamsitilish jabrdiydalari;
- ◆ Ishsizlar va ularning oilalari;
- ◆ Jismoniy va ruhiy rivojlanishi mavjud bolalar va kattalar hamda ularning oilalari;
- ◆ Doimiy qarovga muhtoj bo`lgan qariyalar;
- ◆ O`z muammolarini mustaqil ravishda hal eta olmaydigan migrantlar va ko`chib o`tganlar;
- ◆ Maktabdagi ta`lim bilan bog`liq muammolarga ega bo`lgan bolalar va ularning oilalari;

- ◆ Hayotidagi muhim hodisalar, yo`qotishlar (nafaqaga chiqish, yaqin insoning o`limi) bilan bog`liq kuchli stressni boshidan kechirayotgan insonlar, uyidan qochadigan bolalar va boshqalar.

Ijtimoiy reabilitatsiyada mijoz deganda bir tomondan ijtimoiy ish xodimiga yordam so`rab murojaat etgan va yordam ko`rsatilayotgan individ, oila yoki insonlar guruhi bo`lsa, boshqa tomondan mijoz deb ataladigan insonning ijtimoiy-psixologik holati tushuniladi.

Professional yordam ko`rsatilayotgan insonlarning marginal holatini ifodalovchi bu holat, odatda bola, katta yoshdagi inson, oila, guruh, jamiyat hayotidagi inqirozli vaziyat bilan bevosita bog`liq bo`ladi. Insonning yordam olishiga bo`lgan huquqini e`tirof etgan holda bu holat o`z muammosini mustaqil ravishda echa olmasligini har doim isbotlayotgan iste`molchining alohida ijtimoiy mavqe`i sifatida aks etadi.

Mijozning ijtimoiy mavqe`ining belgilanishida ijtimoiy ishning ekologik modeli sezilarli o`zgartirishlar kiritilishiga olib keladi, unda mijoz ijtimoiy xizmatlarning buyurtmachisi sifatida ularning iste`molchilaridan va ushbu ta`sir yo`naltirilgan shaxslardan farq qilishi mumkin. Mazkur tushunchalar tizimi nuqtai nazari bo`yicha maktab ijtimoiy ish xodimi yoki uning tibbiy xodimi bo`lishi mumkin, ijtimoiy xizmatlar iste`molchisi va harakatlar mo`ljali sifatida esa – aktsentual xulq-atvorni namoyon etayotgan bolaning oilasi tushuniladi. Mazkur misol shvetsiyadagi bolalar va o`spirinlar uchun psixiatrik poliklinikasining amaliy tajribasidan olingan bo`lib, bunda oila ta`sir ko`rsatish va xizmatlarni oluvchisi hisoblanadi. Poliklinikaga yo`llanma maktab, maktabgacha ta`lim muassasasi yoki tuman ijtimoiy byurosi ijtimoiy ish xodimi tomonidan tuziladi.

Tarixan ijtimoiy ish insonlar va guruhlar orasida mavjud adolatsizlik bilan kurashishga qaratilgan. Ijtimoiy ish gumanitar va demokratik g`oyalar asosida rivojlanib, u diskriminatsiya va resurslarning adolatsiz taqsimlanishiga qarshi kurashga chorlagan. Adolatsizlikka qarshi kurashishga chorlash va demokratik g`oyalarning ilgari surilishi kabi asosiy holatlar bugungi kunda

ijtimoiy ishda ahloqiy kodeksning bir qismini tashkil etadi.

Ijtimoiy xizmat nafaqat inson (yoki guruhdagi insonlar) balki uning atrofidagi ijtimoiy muhitga yo`naltirilgan bo`lib, bunda uning atrofidagi ijtimoiy muhit inson ehtiyojlari qondirilishida katta ahamiyatga ega ekanligini tan oladi. Ijtimoiy ish xodimlari nafaqat alohida insonlarga yordam ko`rsatishga harakat qiladilar, balki yanada kengroq global darajada o`zgarishlarga erishishga intilishadi. Mazkur ikki tomonlama e`tiborning mavjudligi ijtimoiy ish xodimini boshqa yordamchi kasblardan, masalan, insoniy ehtiyojlar bilan bog`liq faoliyat bilan shug`ullanuvchi, biroq mazkur ehtiyojlar qondirilishini hal etishda tashqi qarshiliklarga ta`sir ko`rsata olish imkoniyatiga ega bo`lmagan psixologiya va tibbiyotdan farq qiladi.

Ijtimoiy xizmat himoyaga muhtoj aholi guruhlariga yordam ko`rsatishga qaratilgan bo`lib, unda tashqaridan aralashuvlar ishlab chiqilgan. Mazkur aralashuvlar inson huquqlari sohasi bilan chambarchas bog`liqdir. Ijtimoiy xizmatda ijtimoiy ish xodimlari uchun bir qancha aralashuvlar ishlab chiqilgan bo`lib, ular mazkur kasbning ikki yo`nalishini, ya`ni alohida insonlarga yordam ko`rsatish va global o`zgarishlarga erishishga urinishlarini qo`llab-quvvatlashga yordam beradi. Mazkur aralashuvlar jabr-zulmga qarshi kurashib, imkoniyatlar berish, kuchli tomonlar istiqbolini nazarda tutadi. Ushbu aralashuvlarni tushunish orqali ijtimoiy ish xodimlari o`z kasbining inson huquqlari mavzusi bilan aloqasini oson belgilab olish imkoniga ega bo`ladilar.

Ijtimoiy xizmat xodimlari tomonidan keng qo`llaniladigan va odam savdosi qurbonlari bilan ijtimoiy xizmatni tashkil etishda keng qo`llaniladigan nazariyalardan biri imkoniyatlar berishdir. Aralashuvning ushbu turi etnik, sinfiy mansubligi, yoshi, kelib chiqishi, dini va jinsiy yo`nalganligidan kelib chiqqan holda differentsial munosabatda bo`lishga ta`sir etuvchi sharoit va holatlarni tadqiq etilishiga qaratilgan. Bunday aralashuv mohiyati bo`yicha individual yoki guruhiy noqulaylikka javob qaytarishga da`vat etadi. Imkoniyatlar berish jamiyatda insonga nisbatan qanday munosabatda bo`linishiga, shuningdek insonning o`zi resurs va hokimiyatdan qanchalik

foydalana olishiga asoslanadi. Teng boʻlmagan kuchga ega boʻlgan tuzilmalarning kamaytirilishi shu turdagi aralashuv uchun yoʻl ochib beradi hamda fundamental asosni shakllantiradi.

Imkoniyatlar berish ikki oʻzaro bogʻliq va interfaol dinamik jarayonlar bilan tavsiflanadi. Shaxsiy planda mijozning yordam jarayoniga yoʻnalishi barobarida oʻz shaxsiy hayoti yuzasidan maʼsuliyat va nazoratni oʻz zimmasiga olishi orqali yangi vaziyatga qanday munosabat bilan qarashga oʻrganadi, shu bilan hayotiy vaziyatining yaxshilanilishi natijasida oʻzlariga “mukofot” tariqasida yangi xulq shakllarini oʻzlashtiradilar, bu holat oʻz mavqeʼini belgilashning klinik mohiyatini eslatadi. Bularning barchasi imkoniyatlarga egalik bilan bogʻliqdir, chunki ularsiz oʻz mavqeʼini belgilash bir muncha murakkab kechardi. Masalan, agarda inson tibbiy xizmat olish va bu xizmat haqini toʻlash uchun iqtisodiy imkoniyatga ega boʻlmasa, u taqdirda bu insonga munosib tibbiy parvarish olish bilan bogʻliq ehtiyojini qondirish birmuncha qiyinchilik uygʻotadi.

Ijtimoiy jihatdan vakolatlariga ega boʻlish dinamikasi insonning tavsifi u yashayotgan sharoit kontekstidan ayri boʻlishi mumkin emasligini taqozo etadi. Inson hulqi va uning oʻziga xos xususiyatlari boshqa insonlarning ijtimoiy faollikdagi xulqi va xususiyatlari bilan bogʻliq. Oʻz tashqi ijtimoiy muhitida ahamiyatli rollardan biriga ega boʻlish uchun resurs hamda imkoniyatlarga ega boʻlgan inson oʻziga kerakli boʻlgan natijalarga shunchalik oson erishishi mumkin boʻladi. Jamoatchilik ichida oʻz qimmatini, obroʻsi va taʼsir kuchiga ega boʻlgan inson tibbiy xodimlarni toʻlash imkoniga ega boʻlmagan insonlarga zarur muolajalarni arzonroq yoki umuman tekin koʻrsatishlariga koʻndira oladi. Biroq bunday taʼsir koʻrsatishsiz tibbiyot xodimlarini bu kabi imtiyozli asosda xizmat koʻrsatishlariga koʻndirish oson kechmaydi.

Shaxsiy va ijtimoiy planda imkoniyatlar berish bu oʻzaro bir-birini taqozo etuvchi jarayondir. Qachonki inson shaxsiy planda qaysidir maʼlum darajaga erisha olsa, u ijtimoiy planda ham shu darajaga erisha oladi. Insonlarga oʻziga nisbatan teng boʻlmagan munosabatda boʻlishlarini bartaraf etishlariga nisbatan



o`zida kuch topa olishga o`rganishlarida yordam berish ijtimoiy ish xodimlari faoliyatining asosiy ahamiyatli qismini tashkil etadi. Amaliy faoliyatdagi bunday odat mavqe`idan qat`iy nazar barchaga bir xil munosabatda bo`lishga da`vat etuvchi inson huquqlari mavzusi bilan o`zaro hamohangdir.

Odam savdosi qurbonlarini itimoiy reabilitatsiyasida qo`l kelishi mumkin bo`lgan navbatdagi yondashuvlardan biri - kuchli tomonlar nazariyasidir. Kuchli tomonlar istiqbolini belgilash bo`yicha amaliyot insonning yoki guruhning kuchli tomonlari mijoz bilan o`zaro munosabatga kirishishning markaziy tayanch nuqtasi bo`lib, u insonga yordam ko`rsatishga chorlashga qaratiladi. Aralashuvning mazkur turi turli xil tuzilmalar orasida mavjud adolatsiz va noteng munosabat ko`pgina insonlar hamda guruh vakillarini zarur resurslardan ajratib qo`yishini tan oladi. Bunda insonga va uning boshqa bir qancha qiyinchiliklarga qaramay o`z muammolarini hal qilishda qo`llaydigan usul va vositalarining barqarorligiga tayaniladi. Shu tarzda kuchli tomonlar istiqbolini inobatga olmay ishlashda ijtimoiy ish xodimlari mijoz yoki guruhga nisbatan o`ziga xos munosabat domiga oson tushib qolishlari mumkin. Bunda ular mijozlarni patologik me`yordan og`ishgan deb hisoblab, buning natijasida inson yoki guruh bilan munosabatda “keragidan boshqacha” nazarida qarashga tayanib qolishlari mumkin.

Albatta, inson yoki guruhda kuchli tomonlarning mavjudligini tan olish hamda inobatga olish orqali ijtimoiy ish xodimlari aniq bir vaziyatda inson huquqlariga rioya qilish tamoyilini amalda tadbiiq etish uchun qulay va eng ma`qul holatda bo`ladilar. Masalan, ko`p marotaba ishlatilgan igna bilan o`ziga geron yuboradigan vich-infektsiyali mijoz bilan ishlashda ijtimoiy ish xodimi mijozning boshqa yutuqli hayot tarzi va sharoitiga e`tibor qaratishi mumkin bo`ladi. Mijozning uning rivojlanishiga to`siq bo`layotgan ijtimoiy yaqin muhiti hamda shaxsiy sharoiti haqida barcha tegishli ma`lumotlardan xabardor bo`lish barobarida ijtimoiy ish xodimi shu zahotiyoyq mijoz tomonidan namoyon bo`layotgan kuchli tomonlarni qidirishga kirishadi. Bu ish ichida mijoz hayotining aniq bir sharoitiga qo`llash mumkin bo`lgan inson huquqlariga

manzilli e`tibor qaratilgan.

Yuqorida keltirilganlaridan boshqa ijtimoiy xizmatning xulq-atvor yondashuvi, psixotahlil yondashuv, tizimli tahlil, marksistik va feministik amaliyot kabi nazariy yondashuvlaridan ham, odam savdosi qurbonlari bilan ijtimoiy xizmatni tashkil etishda keng foydalanish lozim. O`zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi huzuridagi “odam savdosi jabrdiydalariga yordam berish va ularni himoya qilish bo`yicha Respublika reabilitatsiya markazi”da aynan ushbu faoliyat keng yo`lga qo`yilan bo`lib, bu har bir mijozga individual yondashgan holda ijtimoiy hayotga qayta moslashtirish imkonini yaratib bermoqda.

Bugun yurtimizda inson omili birinchi o`ringa qo`yilgan. Ishlash yoki o`qishni xohlagan har bir inson uchun keng imkoniyatlar ochilgan. “odam savdosi jabrdiydalariga yordam berish va ularni ximoya qilish bo`yicha Respublika reabilitatsiya markazi”ga keltirilgan, odam savdosidan jabrlangan insonlar ham bu imkoniyatlardan to`laligicha foydalanishlari mumkin. Odam savdosidan jabrlangan shaxslar markazda reabilitatsiya o`tayotgan davri mobaynida mutaxassislar tomonidan individual suxbatlar o`tkaziladi. Bu suxbatlarda jabrlanuvchining muammo va qiyinchiliklari o`rganiladi va maxsus muassasalar bilan birgalikda echimlar topiladi.

Bugungi kunda barcha viloyatlarda faoliyat yuritayotgan bandlikka ko`maklashish va axolini ijtimoiy muxofaz qilish boshqarma va markazlari bilan hamkorlikda odam savdosi tufayli jabr ko`rgan fuqarolarni yana takroran odam savdosi qurboniga aylanmasliklari uchun, ularni bo`sh ish o`rinlariga jalb qilib, ish bilan ta`minlanmoqdalar. Tadqiqot natijalarining ko`rsatishicha, bugungi kungacha markaz mijozlarining 59,1 foizining to`liq bandligi ta`minlangan.

Hech qanday xunari bo`lmagan jabrlanuvchilar kasbga tayyorlash kurslarida o`qib chiqqanlaridan so`ng ishga jalb qilinmoqdalar. Mahalla fuqarolar yig`inlari orqali ham iqtisodiy qiynalgan jabrlanuvchilarga moddiy

yordam pullari berilmoqda. Bu imkoniyatlar jabrlanuvchilar o`zlarini tiklab olgunlariga qadar ko`rsatiladigan yordam turlaridir.

Reabilitatsiya markazi yordam berish bilan birga, jabrlanuvchini boqimandaga aylanib qolmasligi, hayotda to`g`ri yo`lni topib olishi va real fikrlashni o`rganishiga alohida e`tibor qaratadi. Masalan, markazga 2011 yilda keltirilgan n. Ismli uylanmagan yosh yigit, garchi ota-onasiz, uy-joysiz bo`lsa-da, hech qanday yordam kerak emasligi, hayotda barcha narsaga o`z kuchi bilan erishmoqchi ekanligini ma`lum qildi. Undagi hayotga realistik yondashuv mamlakatimizdagi har bir yigit-qiz uchun ibrat namunasi bo`ishi mumkin. Markaz xodimlari tomonidan unga ko`mak sifatida o`zi yashayotgan hududdagi tadbirkorlar homiyligida haydovchilik kurslarida tekin o`qish va haydovchilik guvohnomasiga ega bo`lish imkoniyati yaratib berildi. Bu unga qo`shimcha imkoniyat bo`lib, o`z oldiga qo`ygan hayotiy maqsadlariga yanada tezroq erishish imkonini beradi.

2009 yildan faoliyat yurita boshlagan Respublika reabilitatsiya markazi o`z oldiga jabrdiydalar bilan ishlash bo`yicha bir qancha tibbiy, ruhiy, ijtimoiy hamda yuridik vazifalarni qo`yilgan. Ana shunday vazifalardan biri ular bilan ijtimoiy ish olib borishdir. "ijtimoiy ish" Respublikamiz uchun yangi soha bo`lib, bu kasb egalari biron-bir xususiyatiga ko`ra boshqa insonlardan ajralib qolgan, alohida ehtiyojlari bor, jamiyatning qo`llab-quvvatlashlariga muhtoj kishilar bilan ish olib boradilar. Ijtimoiy ish xodimlarining asosiy vazifasi mazkur kishilarni o`zlari tushib qolgan murakkab hayotiy holatdan chiqib olishlariga va jamiyat bilan integratsiyalashuvlariga ko`maklashishdan iboratdir.

Ma`lumki, ijtimoiy xizmat xodimining asosiy maqsadi - farovonlik to`g`risida qayg`urish va shaxsning, oilaning, jamiyatning imkoniyatlari va qobiliyatlarini me`yordagi ijtimoiy faoliyatga yo`naltirishdir. Ijtimoiy xizmat xodimi mijozlar baxtli bo`lishi, o`zlarining hayotidan (oilasidan, ishidan, ma`lumotidan, sog`lig`idan, maoshidan, uy-joyidan, dam olishidan va sh.k.) Ko`ngli to`lishi uchun barcha zarur narsalarni bajaradilar.

Markaz ijtimoiy xizmat xodimi tomonidan odam savdosi jabrdiydalariga ijtimoiy ko`makning quyidagi turlari ko`rsatiladi:

- Ijtimoiy rehabilitatsiya, ya`ni jabrdiydaning ijtimoiy munosabatlari va mavqei qayta tiklanishiga ko`maklashish;
- Imkon darajasida turar joy hamda boshpana bilan ta`minlanishiga erishish;
- Oilasiga qaytarish, qarindoshlari bilan aloqalarni tiklash, bolalarini olib berish;
- Ta`lim olish va kasbga yo`naltirish;
- Ish bilan ta`minlash;
- Hujjatlarini qayta tiklash;
- Turli muassasalar bilan munosabatlarni o`rnatishiga ko`maklashish;
- Mijozlarning haq-huquqlarini himoya qiladi, ularga o`z haq-huquqlaridan foydalanish, ijtimoiy munosabatlarga kirishish va mavqegini tiklash bo`yicha malkaga ega bo`lishiga ko`maklashadi, ularni o`qitadi;
- Mijoz haqida axborot to`plash, qayta ishlash va axborot almashish.

Markazga murojaat etgan yoki keltirilgan jabrdiydalar to`liq ijtimoiy rehabilitatsiya qilinmagunlaricha, barcha ijtimoiy munosabatlari va mavqesi tiklanmaguncha hamda jamiyatda o`z o`rnini topib, o`z hayotini bir me`yorga tushirib olishga erishmagunlaricha, ijtimoiy ish xodimi nazorati ostida bo`ladi. Markazning barcha mijozlari yuqorida sanab o`tilgan holatlar bo`yicha ijtimoiy ish xodimiga istalgan vaqtda murojaat etishlari mumkin.

Shuningdek, ijtimoiy ish xodimi odam savdosi jabrdiydalariga doir statistik hisobotni yuritadi va odam savdosini oldini olishga doir barcha tadqiqotlarga ko`maklashadi.

Markazning ijtimoiy xodimi odam savdosining oldini olishga ko`maklashar ekan, keyinchalik ushbu jinoyatning qurboni bo`lishi mumkin bo`lgan kishilar yoki kishilar guruhini aniqlash, ular bilan ijtimoiy ish olib borish va aholining odam savdosi jinoyatidan xabardorligini oshirish borasida hamkorlikni amalga oshiradi.

Ijtimoiy ish xodimlari odam savdosi kabi jirkanch faoliyat qurbonlarini ijtimoiy hayotga qayta moslashtirishda alohida e`tibor qaratishi lozim bo`lgan masalalardan biri – ijtimoiy ishda axloq tamoyillaridir. Ijtimoiy ish xodimlari xalqaro federatsiyasi va ijtimoiy ish maktablari xalqaro assotsiatsiyalari tomonidan ijtimoiy ishda axloqiylikning besh asosiy o`lchami tavsiya qilinadi. Ular: 1) inson qadr qimmatini va qadriyatini; 2) ijtimoiy adolat; 3) insonparvarlikka xizmat qilish; 4) butunlik; 5) kompetentlik<sup>1</sup>.

Ijtimoiy xizmat amaliyoti insonparvarlikka, halollikka va kompetentlikka xizmat qilish yo`li bilan inson qadr-qimmatini hurmat qilishga ham, ijtimoiy adolatni ta`minlashga ham ko`maklashishi kerak.

Inson qadr-qimmatini va qadriyatining o`lchovi har bir insonning unikal, takrolanmas hodisa ekanligini ta`kidlash bilan belgilanadi. Barcha odamlar boshqalarning huquqlarini kamsitmaydigan darajada ijtimoiy farovonlik, o`z-o`zini namoyon etish va o`z hayotini nazorat qilish huquqiga ega. Uning asosiy tamoyillari ijtimoiy ish xodimlarining bmt inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida va deklaratsiyadan kelib chiqqan boshqa kelishuvlarda aks etgan insonning asosiy huquqlarini hurmat qilish; barcha odamlarga hurmat ko`rsatish va xizmatdan foydalanayotgan shaxslarning (guruhlarining) ishonch, madaniyat, maqsadlar, ehtiyojlar, ustuvorliklar, munosabatlar va xususiyatlarga e`tiborli bo`lish; xizmatdan foydalanayotgan shaxslarning qadr-qimmatini, individualligi, huquqlari va majburiyatlarini himoya qilish va rag`batlantirish; boshqa odamlarning huquqlarini lozim darajada hurmat qilgan holda individual farovonlik va avtonomlikni rag`batlantirish; xizmatdan foydalanayotgan shaxslarning huquqlarini hurmat qilish, asoslangan qarorlar qabul qilish, xizmatdan foydalanayotgan shaxslarni va xizmat ko`rsatayotgan shaxslarni rag`batlantirish, qaror qabul qilish jarayonlarida ishtirok etish; xizmatdan foydalanayotgan shaxslarni cheklash hamda ularni va boshqalarni himoya qilish maqsadida ular ustidan hukmronlik qilishni ham qamrab oluvchi xizmatdan

---

<sup>1</sup> Ijtimoiy ishda axloq kodeksi. [Http://www.basw.co.uk](http://www.basw.co.uk)

foydalanuvchilar muhofazasini ta`minlash kabi majburiyatlarni e`tirof etishdan iborat.

Ijtimoiy adolat o`lchovining mazmuni insonning asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun lozim bo`lgan resurslarning adolatli va teng taqsimlanishi; inson potentsialiga erishish uchun ijtimoiy xizmatlar va imtiyozlarga nisbatan teng imkoniyatlar; individuumlar, oilalar, guruhlar va jamoalarning huquq va majburiyatlarini tan olish; qonun tomonidan bir xil munosabat va muhofaza; insonning zamonaviy va kelajakdagi farovonligi manfaatlari yo`lida ijtimoiy rivojlanish hamda atrof-muhitni boshqarishdan iborat.

Ijtimoiy adolat yomon sharoitlarni kamaytirishga va ularni engish strategiyasini qo`llab-quvvatlashni anglash va intilishga aloqador bo`ladi. Uning tamoyillari ijtimoiy ish xodimlari quyidagi majburiyatlarida aks etgan: hokimiyatga ega bo`lgan shaxslar va jamiyatning e`tiborini jalb etish hamda o`rni kelganda hukumat, tashkilotlar yoki jamiyatning faoliyati yoki strategiyasi yomon sharoitlarni, mahrum bo`lishni va azoblanishni keltirib chiqarishi yoki engillashtirishga qarshilik qilishi mumkin bo`lgan holatlarga yo`l qo`ymaslik; kasbiy bilim va tajribasidan ijtimoiy siyosatni rivojlanishiga ko`maklashish uchun foydalanish; xizmatdan foydalanayotgan barcha shaxslar, ayniqsa noqulay sharoitlardagilar, himoyaga muhtojlar va ezilayotganlar yoki muhim ehtiyojga ega kishilarni oldida turgan to`siqlarni eng kam darajaga olib tushish, tanlov va imkoniyatlarini oshirish maqsadida o`z ishida ijtimoiy adolat va resurslarning teng taqsimlanishiga ko`maklashish; tengsizlik va adolatsizlikni saqlab qolayotgan ijtimoiy formatsiyalarni o`zgartirishga intilish va imkoniyat darajasida inson huquqlarini buzilishlarining oldini olish bo`yicha ish olib borish; inson huquqlarini qo`llab-quvvatlovchi hamda barcha uchun imkoniyat, tenghuquqlilik va ishtirokni ta`minlashga intiluvchi tamoyillar, tartibot va ijtimoiy sharoitlarga ko`maklashish; nafaqat fuqarolik yoki siyosiy, balki iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ham qo`llab-quvvatlash; har qanday odam yoki guruhga qarshi har qanday, kelib chiqishi, millati, sinfi, mavqei, jinsi, jinsiy yo`nalganligi, yoshi, imkoniyati cheklanganligi, e`tiqodi yoki jamiyatga

qo`shgan hissasi kabi asoslarda ham, hissiyotga berilgan holda harakat qilmaslik; odamlarni hayotiga ta`sir qiluvchi qarorlardan siqib chiqarish yoki chiqarib tashlash uchun hokimiyatdan foydalanishga qarshilik qilish; siqib qo`yish va alohida imkoniyatlarga ega bo`lishga qarshi strategiyani va usullarni qo`llab quvvatlash, individuumlarga, oilalarga, guruhlariga va jamoalarga ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy resurslarga ega bo`lishning teng imkoniyatlarini qidirish va erishishiga hamda o`zini namoyon etish, o`zini boshqarish va ijtimoiy farovonlikka erishishiga ko`maklashishga intilish; etnik va madaniy guruhlarda etnik va madaniy mansublikni hamda xilma-xillikni tan olish va hurmat qilish, shunga mos strategiyani, tartibotni va tamoyillarni rivojlantirish; jamiyatning ijtimoiy jarayonlar va qarorlarda, shuningdek ijtimoiy strategiyalar va xizmatlarni rivojlantirishdagi ishtirokini rag`batlantirish.

Insonparvalikka xizmat qilish tamoyili inson farovonligi va ijtimoiy adolat yo`lida xizmat qilish ijtimoiy ishning eng birinchi maqsadi ekanligidan kelib chiqadi va shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish; odamlarning imkoniyatlarini rivojlantirishga ko`maklashish; adolatliroq jamiyat yaratish ishiga o`z hissasini qo`shish kabi vazifalarni qamrab oladi. Asosiy tamoyillari esa, milliy yoki xalqaro axloqiy kodekslarga mos ravishda o`z amaliyotining axloqiy majburiyatiga ega bo`lish; o`z majburiyatini bajarib hamda tabiiy adolat tamoyillariga amal qilgan holda ish davomida insonparvarlikka xizmat qilishni shaxsiy maqsad, fikr va foydadan ustun qo`yish; xizmatdan foydalanayotgan shaxslarni rag`batlantirgan holda partisipator va ochiq jaranyolarni ishlatib, aloqador bo`lishi mumkin bo`lgan kishilar manfaatlarini hisobga olgan holda o`z maqsadlarini imkon darajasida amalga oshirib, gumanizmga xizmat qilish uchun o`z hokimiyati va vakolatlaridan foydalanish; xizmatdan foydalanayotgan shaxslar ikkilanib turganda va ularni arz qilish huquqi haqida ma`lumot bilan ta`minlash hamda arz qilgan taqdirda qo`llab-quvvatlanishiga kafolat berish; taklif etilayotgan va ko`rsatilayotgan xizmatlarni mos madaniyatlarga xos tarzda ta`minlashga intilish; xizmatdan foydalanayotgan shaxslarning amaliyot va

strategiyani ishlab chiqish hamda ularga ko`rsatilayotgan xizmatni baholashda ishtirokini ta`minlashga intilish kabilardan iborat.

Butunlik o`lchovi halollik, ishonchlilik, ochiqlik va beg`arazlikni qamrab oladi va ijtimoiy ish amaliyotida muhim qadriyat hisoblanadi. Uning asosiy tamoyillari: xizmatdan foydalanayotgan shaxslarning ehtiyojlari va manfaatlarini o`zining shaxsiy e`tiqodi, maqsadlari, mulohazasi va foydasidan ustun qo`yish hamda kasbiy munosabatlardan shaxsiy, moddiy yoki moliyaviy foyda olish uchun foydalanmaslik; shaxsiy xulq-atvori kasbiy majburiyatini bajarishni xavf ostiga qo`ymaslikni kafolatlash hamda kasb tamoyillari va standartlariga mos kelmaydigan yoki kasbning butunligiga zarar etkazadigan xulq-atvordan qochish; o`zining malakasi, bilimlari, tajribasi, yutuqlari yoki biron bir guruhga mansubligiga nisbatan halol va aniq bo`lish; ommaviy chiqish vaqtida ikki xil ma`noga yo`l qo`ymasdan, xususiy shaxs nomidan gapiryaptimi yoki ijtimoiy ish kasbi, tashkiloti yoki guruhi vakili sifatidami, aniq bildirish; xizmatdan foydalanayotgan, foydalangan shaxslar, tadqiqotda ishtirok etayotganlar, talabalar, kuzatuv ostidagi shaxslar yoki hamkasblar bilan har qanday munosabatlardagi ziddiyatlar, foydalanish va zarar etkazish xavfini kamaytirish maqsadida aniq kasbiy chegaralarni o`rnatish va kuchaytirish; kasb chegaralarini buzuvchi har qanday xulq-atvorning har qanday shakllaridan, anglanmagan holda kasbiy munosabatlarga zarar yoki ziyon etkazishdan qochish; ayni vaqtda xizmatdan foydalanayotgan shaxslar, talabalar, kuzatuv ostidagi shaxslar, tadqiqotda ishtirok etayotganlar yoki kasbiy mavqei hokimiyat yoki vakolatlarning tengsiz taqsimoti mazkur ijtimoiy ish xodimining foydasiga hal bo`ladigan darajadagilar bilan hech qanday intim yoki jinsiy aloqalarga kirishmaslik; xizmatdan foydalangan shaxslar bilan intim yoki jinsiy aloqalarga kirishmaslik; agar lozim bo`lsa, maslahatlashish kabilardan iborat.

Navbadagi o`lcham kompetentsiya bo`lib, ijtimoiy ish amaliyotida malakaning muhim ahamiyatini e`tirof etish bilan belgilanadi. Uning tamoyillari ijtimoiy ish amaliyotida bilim, nazariya va mahoratni aniqlash, rivojlantirish, foydalanish va tarqatish; o`z malakasini oshirishning yangi yondoshuv va



usullarini baholagan holda, sifatli xizmat ko`rsatish va hisobot beriluvchi amaliyot uchun lozim bo`lgan bilimlarini saqlash va kengaytirish; mavjud nazorat va maslahatdan foydalanish hamda lozim kuzatuvni ta`minlash uchun, zaruriyatga qarab faol choralar ko`rgan holda, uzlusiz ravishda kasbiy takomillashib borish; ijtimoiy muammolarning tabiati va asoslarini hamda ularni hal qilish yo`llari haqida fikr yuritish; baholash va tadqiqotlarga ko`maklashish; bilim va amaliy tajribalarini o`rtoqlashgan holda hamkasblar va talabalarning o`qishi va tayyorlanishiga ko`maklashish; insonning ijtimoiy farovonligiga doir strategiyalar va dasturlarni rivojlantirish va joriy qilishga ko`maklashish; madaniyatga mos keluvchi amaliyot hamda madaniy hissiy xizmatlarning tarqalishiga ko`maklashish; o`z bilimlarining chegaralarini tan olish va yanada mos keladigan professional talab qilinganida ish beruvchilar hamda xizmatdan foydalanuvchi shaxslarga xabar berish; xizmatdan foydalanuvchi shaxslarni ko`proq professionallar jalb qilingan ishlarning afzalliklari va natijalari haqidagi hamda ularning ma`lumot olish huquqi haqidagi ma`lumotlar bilan ta`minlash va ularning roziligi bilan ularning farovonligini oshirish bo`yicha boshqa shu bilan bog`liq professionallar bilan mas`uliyatni taqsimlagan holda ishlash kabilardaifodalanadi. Zaif sog`liq yoki boshqa har qanday omil ularning professional qarorlari va majburiyatini bajarishlariga ta`sir qiladigan bo`lsa, lozim choralarni ko`rish muhim ahamiyatga ega.

Ma`lumki, odam savdosi jabrdiydalari o`z sog`liqlarini yo`qotishlari, ruhiy inqiroz holatiga tushib qolishlari yoki yaqin insonlari bilan munosabatlari izdan chiqishi mumkin. Ushbu holatlarda markaz xodimlari ularning salomatliklarini hamda ruhiy holatlarini tiklab olishlariga ko`maklashadilar. Markazning ijtimoiy ish xodimi esa, jabrdiydalarning oilasiga, ota-onasi yoki farzandlari bag`riga qaytishlariga, boshpana va ish bilan ta`minlanishlariga ko`maklashadi. Shuningdek, mijozlar bilan doimiy aloqada bo`lib turadi va ularning normal hayotga qaytgunlaricha nazorat qilib turadi. Bu davr ichida ularda paydo bo`lgan qiyinchiliklar va muammolarni hal qilishlariga ko`maklashadi. Bundan ko`zlangan asosiy maqsad – jabrdiydalarning yana jinoyatchilar tuzog`iga tushib

qolishlarining oldini olishdan iborat. Chunki, zamonaviy ijtimoiy ish sohasi olimlari “xatar guruhi” degan tushunchani ishlatishadi va bu tushunchaga ko`ra, odam savdosi qurbonlari ko`proq jamiyatda va oilasida qandaydir muammolari bor insonlar ichidan chiqadi. Shu boisdan, ushbu “xatar guruhlari” bilan ijtimoiy ish olib borish davomida, ularning odam savdosi qurboniga aylanishlarining oldini olishga ham alohida e`tibor qaratish talab etiladi.

## **2.2. O`zbekistonda odam savdosi qurbonlarining ijtimoiy qiyofasi**

XX asr oxirlarida yuz bergan o`zgarishlar natijasida dunyo xaritasida bir qancha yangilanishlar sodir bo`ldi, aniqrog`i o`nlab mustaqil davlatlar paydo bo`ldi. Davlat tuzumining o`zi insonni tahqirlash va erkinligini bo`g`ish ustiga qurilgan sobiq ittifoqda “odam savdosi” bo`yicha qonunchilik yaxshi rivojlanmagan edi. Natijada, yosh mustaqil davlatlarning bir tomondan iqtisodiy qiyinchiliklar va siyosiy islohotlar tufayli bir oz karaxt ahvolga tushib qolgan, ikkinchi tomondan yuqorida aytilganidek, qonunchilik yaxshi rivojlanmaganligi sababli, odam savdosi jinoyati haqidagi huquqiy bilimlari kamroq bo`lgan fuqarolari jirkanch jinoyatning qurbonlari sifatida dunyo bozorlarini to`ldira boshladilar. Ushbu qurbonlar ichida ayollar va yosh bolalarning ko`payib borayotganligi ayniqsa tashvishli holat edi.

Mazkur holatlar ilg`or jamoatchilikni tashvishlantirmasligi mumkin emasdi va tez orada mustaqil davlatlar odam savdosiga qarshi jinoiy huquqshunoslikni shakllantirishga va mazkur jinoyatning oldini olishga kirishdilar. Odam savdosiga qarshi kurashni boshlagan yosh davlatlarning oldingi saflarida O`zbekiston Respublikasining ham borligi quvonarli holdir. Bugungi kunda Respublikamiz bu borada mdh mamlakatlarida oldingi safga chiqib olishiga bir qancha omillar ko`mak berdi. Bu avvalo, uzoqni ko`zlagan dono rahbariyatdir. O`zbekiston Respublikasida amalga oshirilyotgan barcha islohotlar kabi, odam savdosiga qarshi kurash ishi ayrim davlatlardagi kabi

xo`jako`rsinga, nomiga tashkil qilinmadi. Qonunchilikdan tortib, tashkiliy ishlargacha, barchasi aniq yoritilgan maxsus dastur asosida tashkil qilindi. Uning oldini olish bo`yicha aholi xabardorligini oshirishga yo`naltirilgan ishlar amalga oshirildi va bu faoliyat bugungi kunda ham davom etib kelmoqda.

O`zbekiston Respublikasining 2008 yil 18 martda qabul qilingan “odam savdosiga qarshi kurash to`g`risida” gi qonuniga ko`ra, mamlakatimizda odam savdosi deganda “kuch bilan tahdid qilish yoki kuch ishlatish yoxud boshqa majburlash shakllaridan foydalanish, o`g`irlash, firibgarlik, aldash, hokimiyatni suiste`mol qilish yoki vaziyatning qaltisligidan foydalanish orqali yoxud boshqa shaxsni nazorat qiluvchi shaxsning roziligini olish uchun uni to`lovlar yoki manfaatdor etish evaziga og`dirib olish orqali odamlardan foydalanish maqsadida ularni yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish. Odamlardan foydalanish boshqa shaxslarning fohishaligidan foydalanishni yoki ulardan shahvoniy foydalanishning boshqa shakllarini, majburiy mehnat yoki xizmatlarni, qullik yoki qullikka o`xshash odatlarni, erksiz holat yoxud inson a`zolari yoki to`qimalarini ajratib olish” tushuniladi<sup>1</sup>.

Garchi, bugungi kunda mamlakatimizdan tashqarida yollanib ishlayotganlar ko`pchilikni tashkil qilsalarda, ularning hammasi ham, mazkur jinoyatning qurbonlari emas. Ular faqat “xatar guruh”iga kiruvchi insonlar bo`lib, shu toifadagilar orasidan odam savdosi qurbonlari ko`proq chiqishi mumkin. Rasman odam savdosi qurboni maqomiga ega bo`lish uchun esa, O`zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksining 135- moddasiga asosan yuritilayotgan jinoyat ishida jabrlanuvchi tomon deb topilgan bo`lishi lozim. Faqat ushbu maqomdagi shaxslar mamlakatimizda odam savdosi qurboni deb tan olinadi va aynan ularga nisbatan rehabilitatsiya faoliyati amalga oshiriladi. Bugungi kunda faqat 1000 nafardan oshiqroq shaxs odam savdosi qurboni sifatida “odam savdosi jabrdiydalariga yordam berish va ularni ximoya qilish

---

<sup>1</sup> O`zbekiston Respublikasining Qonuni. “Odam savdosiga qarshi kurash to`g`risida”. 3-modda.

bo'yicha Respublika reabilitatsiya markazi" da ro'yxatga olingan<sup>1</sup>.

Ularning viloyatlar bo'yicha taqsimlanishi quyida keltirilgan.




Markazda reabilitatsiyadan o'tgan jabrdiydalarning o'rtacha yoshi 37,8 ga teng bo'lib chiqdi. O'rtacha yosh ko'rsatkichining yuqori bo'lishiga sabab – mazkur jinoyat qurbonlari ko'proq sobiq ittifoq davrida tarbiyalangan o'rta yoshlilar bo'lib, ular turli jinoiy guruhlar kuchli ta'sirga ega bo'lgan, qonunchilik mustahkam o'rnamagan yaqin o'tmishdagi “qardoshlarimiz” rossiya federatsiyasi va qozg'istonga ishlash uchun borishga ko'proq intilmoqdalar.

Markazda reabilitatsiyadan o'tgan eng yosh mijoz onasi bilan birga sotib yuborilgan 6 yoshli bolacha bo'lsa, eng yoshi kattasi 71 yoshli oqsoqol edi. Qurbonlar tarkibida yosh go'daklar ham, keksa kishilar ham borligi jinoyatchilarning qanchalik razil insonlar ekanligini, foyda ko'rish maqsadida hech narsadan qaytmasligini ko'rsatadi. Markaz xodimlarining ma'lum

<sup>1</sup> Ushbu bo'limni tayyorlashda “Odam savdosi jabrdiydalariga yordam berish va ularni ximoya qilish bo'yicha Respublika reabilitatsiya Markazi” tomonidan taqdim qilingan statistik ma'lumotlardan foydalanildi.


qilishlaricha, odam savdosi qurbonlarini aksariyat hollarda o'z tanigan kishilari, yaqinlari sotib yuborishgan bo'ladi. 71 yoshli cholni ham, o'z nevaralarining do'sti bo'lgan qo'shni bola sotib yuborgan.

Odam savdosi qurbonlari haqida gapirilganda, ko'proq ayollar ushbu jinoyat qurbonlarga aylanishayotganligi haqida aytiladi. Biroq, tadqiqot natijalari ko'rsatishicha, O'zbekistonda bu ko'rsatkich erkaklar orasida bir necha barobar yuqori. Prokuratura va ichki ishlar organlari bilan suhbatlashilganida, ular ham buni tasdiqlashdi. Albatta, ayol-jabrduydalarning ko'rgan qiyinchiliklari va boshidan kechirganlari ayollarnikiga qaraganda ayanchliroq. Biroq, shu bilan birga odam savdosi qurboniga aylanayotgan ayollarning miqdori erkaklarnikiga qaraganda bir necha barobar kam. Buni markaz mijozlari miqdorida ayollar sonining kamligi ham ko'rsatib turibdi .



Oldingi bo'limlarda ko'rib o'tganimizdek, odam savdosiga jalb qilingan qurbonlar turli maqsadlarda foydalanilgan. Jahon miqyosida ko'proq ayollar va bolalar savdosi kengroq tarqalgan bo'lib, ilmiy jamoatchilik va xalqaro tashkilotlar ham o'z faoliyatlarini ko'proq ushbu yo'nalishda ishlashga qaratadilar. O'zbekistonda esa, erkaklar ko'proq odam savdosi qurbonlariga aylanishmoqda. Chunki, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va sobiq ittifoqdan qolgan og'ir meros natijasida mamlakatimizda ish bilan band bo'lmagan aholi

ko`pchilikni tashkil qilmoqda. Ikkinchi tomondan, xx asrning 70-80 yillarida Respublikamizda tug`ilish miqdorining keskin o`shishi natijasida aynan so`nggi o`n yillikda mamlakatimiz aholisi tarkibida yoshlar miqdori tez o`sib bormoqda. YOsh mustaqil davlat esa, o`z imkoniyatlari bilan etarli miqdorda ish o`rinlari yaratishga ulgurmayapti. Xalqimiz madaniyatiga ko`ra esa, oilani erkaklar boqadi. Bu holatlarning barchasi birgalikda mehnat tashqi migratsiyasida asosan erkaklar ishtirok etishlariga sabab bo`lmoqda. Norasmiy tashqi migratsiya esa, uning ishtirokchilarini “xatar guruhi” a`zosiga aylantirib qo`ymoqda va shu boisdan ham, odam savdosi qurbonlarining mutlaq ko`pchiligini majburiy mehnat faoliyati bilan shug`ullanganlar tashkil qilmoqda. Buni tadqiqot natijalari ham ko`rsatib turibdi .



Odam savdosi bilan bog`liq hodisaning tahlilida uning trafek yo`nalishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ya`ni, qurbonlar qaysi mamlakatdan qaysi davlatlar orqali qaerga olib ketilayotganligini tahlil qilish orqali ham, ko`plab dolzarb ijtimoiy muammolarni aniqlash mumkin. Tadqiqot natijalarining ko`rsatishicha, O`zbekistondan odam savdosi qurboniga aylangan fuqarolar eng ko`p rossiya federatsiyasiga olib chiqib ketilgan (6-rasm). Ikkinchi o`rinda esa,

O`zbekistonliklar qozog'iston Respublikasida (36%) odam savdosi qurboniga aylanganlar. Rossiya va qozog'istonda jabrlanganlar taxminan bir-biriga yaqin miqdorga ega bo`lib, jinsiy tarkibiga ko`ra, ularning mutlaq ko`pchiligini erkaklar tashkil qilganligi, ushbu davlatlarga O`zbekistonliklar asosan og'ir jismoniy ishlarni bajarishda foydalanish maqsadida olib chiqib ketilganligini taxmin qilish mumkin.



Shu o`rinda e`tiborga molik uchinchi o`rindagi ko`rsatkich – 14,2% - ichki yo`nalishdagi trafek, ya`ni mamlakatimizning ichkarisida yuz bergan jinoyiy xatti-harakatlardir. Bu Respublikamizda amalga oshirayotgan fuqarolar huquqiy madaniyatini o`stirish yo`lidagi sa`y-harakatlar nechog`li o`rinli ekanligini ko`rsatadi. Demak, bir tomondan hali Respublikamiz aholisida o`zini ozod inson sifatida anglash tuyg`usi etarli shakllanmaganligi to`g`risida xulosa qilsak, ikkinchi tomondan ommaviy axborot vositalari orqali mazkur jinoyiy faoliyat bilan shug`ullanayotgan insonlarni keng jamotchilikka namoyish qilish orqali, ushbu faoliyatdan saqlanish hisini har bir fuqaroda shakllantirish, shuningdek, qaysi xatti-harakat odam savdosi sifatida bholanishi to`g`risida aholining xaardorligini oshirish lozim. BAA (5,2%), turkiya (2,4%) va boshqa davlatlar (3,2%) yo`nalishida olib chiqib ketilganlarning mutlaq ko`pchiligini ayollar tashkil etgan. “boshqa davlatlar” ichida qirg`izistondan tortib, janubiy

koreyagacha, ukraina va gruziyadan to hindiston va tailandgacha mamlakatlar mavjud bo`lgan (O`zbekiston fuqarolari pol'sha davlatiga sotib yuborilgan holatlar ham yuz bergan) ushbu yo`nalishdan maqsad asosan ayollarni majburiy fohishabozlikda foydalanishdan iborat bo`lgan.

## **II. BOB. O`ZBEKISTONDA ODAM SAVDOSI QURBONLARINI IJTIMOIY REABILITATSIYASI JARAYONINING TAHLILI**

### **3.1. O`zbekistonda odam savdosiga qarshi kurash jarayonining tizimiy tahlili**

“Odam savdosi” insoniyatga qarshi jinoyatning alohida turi sifatida bugungi kunda jahon hamjamiyatining e`iborini eng ko`p tortayotgan muammolardan biridir. Jahondagi barcha mamlakatlar ushbu muammoga u yoki bu darajada daxldor bo`lib, ularni odam savdosiga munosabatlariga ko`ra, ikki xil sinflashtirgan holda guruhlashtirish mumkin.

Birinchi sinflashtirish. Mamlakatlar mazkur masalaga hukumatning munosabati va odam savdosiga qarshi kurash va oldini olish bo`yicha amalga oshirayotgan harakatlariga ko`ra uchta guruhga ajratiladi:

Birinchi guruh – odam savdosi muammosi o`ta dolzarb hisoblanadigan, uni hal qilish uchun davlat, mahalliy hokimiyat va jamoat tashkilotlarining sa`y-harakatlari birlashtirilgan mamlakatlar. Bu mamlakatlarda odam savdosi uchun jazolash nazarda tutilgan qonunlar qabul qilingan. Bunga aqsh, shvetsiya yoki O`zbekistonni misol qilib ko`rsatish mumkin.

Ikkinchi guruh mamlakatlarida odam savdosi muammosi anglangan, mahalliy hokimiyat va jamoat tashkilotlari ish olib bormoqda, biroq barcha harakatlar uyg'unlashtirilmagan. Masalan, ukrainada odam savdosi uchun jazolashni nazarda tutuvchi qonun qabul qilingan, hukumat darajasida odam savdosining oldini olish bo`yicha majmuaviy choralar nazarda tutilgan maxsus dastur qabul qilingan, biroq davlat, mahalliy hokimiyat va jamoat tashkilotlari o`rtasida samarali hamkorlik mavjud emas.



Uchinchi guruh mamlakatlarida mazkur muammo endi anglanmoqda va eng asosiysi odam savdosiga qarshi kurash bo`yicha qonunchilikning ishlab chiqilmaganligi.

Ikkinchi sinflashtirish. Mamlakatlarning quyidagi guruhlar ajratiladi:

- Iste`molchi mamlakatlar (odatda, iqtisodiy taraqqiy etgan mamlakatlar);
- Manba mamlakatlar (odam savdosining paydo bo`lishi uchun sharoit mavjud – ishsizlik yuqori darajada, aholi daromadlari quyi darajada);
- Tranzit mamlakatlar (hududidan qurbonlar olib o`tiladigan mamlakatlar).

Birinchi guruhga g`arbiy Yevropa va aqsh mamlakatlari, shuningdek turkiya va misr kabi davlatlar, ikkinchi guruhga sobiq ittifoq hududidagi mamlakatlar, lotin amerikasi va boshqalar kiradi.

Faqat tranzit bo`lgan mamlakatlarni ajratish qiyin. Manba mamlakatlar ham, iste`molchi davlatlar ham, olib o`tiluvchi davlat sifatida foydalanilishi mumkin.

Davlatlarni mazkur sinflashtirish bo`yicha aniq guruhlarga ajatish qiyin. Masalan, O`zbekiston Respublikasi asosan odam savdosi uchun manba davlat deyish mumkin. Shu blan birga, mamlakatimiz orqali Yevropa va arab davlatlariga janubiy-sharqiy osiyo va hindiston davlatlaridan qurbonlarni olib tish uchun tranzit sifatida foydalanilganligi aniqlangan. Shuningdek, ayrim o`rinlarda mamlakat ichida ham, iste`molchi sifatida chiqqanligi kuzatilgan.

Shu boisdan, mamlakatimizda odam savdosiga qarshi kurashish va uni oldini olish maqsadida maxsus organlar tashkil etilgan va mavjud ijro organlari zimmasiga ham bir qator vazifalar yuklatilgan. Xususan, 2008 yil 17 apreldan kuchga kirgan “odam savdosiga qarshi kurash to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasi qonunida mamlakatimizdagi tizim aniq ajratib ko`rsatilgan.

Asosi printsiplari qonuniylik; odam savdosi bilan shug`ullanuvchi shaxslar javobgarligining muqarrarligi; odam savdosidan jabrlanganlarning kamsitilishiga yo`l qo`ymaslik; ijtimoiy hamkorlikdan iborat bo`lgan odam savdosiga qarshi kurashish bo`yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat

organlari qonunning 5-moddasida ko`rsatib o`tilgan<sup>1</sup>. Ular quyidagilardan iborat:

O`zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi;

O`zbekiston Respublikasi milliy xavfsizlik xizmati;

O`zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirligi, O`zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalar va konsullik muassasalari;

O`zbekiston Respublikasi sog`liqni saqlash vazirligi.


Odam savdosiga qarshi kurashish faoliyatini qonun hujjatlariga muvofiq boshqa davlat organlari ham amalga oshirishi mumkin.

Qonunning 6-moddasida odam savdosiga qarshi kurashishni amalga oshiruvchi davlat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish uchun odam savdosiga qarshi kurashish bo`yicha Respublika idoralararo komissiyasi tuzilishi belgilab qo`yilgan. Idoralararo komissiyani shakllantirish va uning faoliyati tartibi O`zbekiston Respublikasi prezidenti tomonidan belgilanadi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 8 iyuldagi 911-son qarori bilan idoralararo komissiya nizomi va tarkibi tasdiqlangan. Mazkur qarorga ko`ra komissiya raisi qilib O`zbekiston Respublikasi bosh prokurori belgilangan. Prokuratura organlariga amalda mamlakatimizda odam savdosi jinoyatiga qarshi ishlarga rahbarlik qilish va oldini olish bo`yicha amaliyotni tashkil etish vazifasi topshirilgan.

Qoraqalpog`iston Respublikasi, viloyatlar va toshkent shahrida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda odam savdosiga qarshi kurashish bo`yicha hududiy idoralararo komissiyalar ham tuzilishi mumkin.

### **O`zbekiston Respublikasida odam savdosiga qarshi kurash olib boruvchi organlar tizimi**



Idoralararo komissiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Davlat organlari, fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining odam savdosiga qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

Odam savdosiga imkon beruvchi sabablar va sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etishga doir ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etish;

Odam savdosining ko`lami, holati va xususiyatlari to`g`risida axborot to`plash hamda tahlil qilish;

Hududiy idoralararo komissiyalarning faoliyatini muvofiqlashtirish;

Odam savdosidan jabrlanganlarga yordam ko`rsatish va ularni himoya qilish ishlarini yaxshilash bo`yicha takliflar tayyorlash;

Odam savdosiga qarshi kurashish to`g`risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish bo`yicha takliflar tayyorlash;

Odam savdosiga qarshi kurashish masalalari haqida aholini xabardor qilish tadbirlarini tashkil etish.

Qonunning 7-moddasida odam savdosiga qarshi kurashish bo`yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlarining vakolatlari belgilab berilgan. Xususan, O`zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi odam savdosiga qarshi kurashish sohasida:

Odam savdosi bilan bog`liq jinoyatlarni ochish bo`yicha tezkor-qidiruv faoliyatini tashkil etishi hamda amalga oshirishi, jinoyat ishlari bo`yicha surishtiruv va dastlabki tergov o`tkazilishini ta`minlashi;

Odam savdosi bilan bog'liq jinoyatlarning statistika hisobini tashkil etishi va amalga oshirishi;

Odam savdosi bilan shug'ullanuvchi shaxslar, uyushgan guruhlar va jinoiy uyushmalarning faoliyatiga chek qo'yish bo'yicha xalqaro tashkilotlar hamda boshqa davlatlarning huquqni muhofaza qiluvchi organlari bilan hamkorlikni amalga oshirishi;

Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritishi;

Odam savdosi bilan shug'ullanuvchi shaxslar, uyushgan guruhlar va jinoiy uyushmalar haqida tegishli davlat hokimiyati hamda boshqaruv organlariga axborot taqdim etishi;

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlik qilishi, ommaviy axborot vositalarini jalb etgan holda aholi o'rtasida keng miqyosda ogohlantirish-profilaktika ishlarini o'tkazishi;

O'zbekiston Respublikasining ikki tomonlama va ko'p tomonlama xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan, ichki ishlar organlari vakolatiga kiradigan tadbirlarni amalga oshirishi belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi milliy xavfsizlik xizmati odam savdosiga qarshi kurashish sohasida:

Xalqaro terrorchilik tashkilotlari va uyushgan jinoiy guruhlarining odam savdosi bilan shug'ullanuvchi shaxslar bilan aloqalarini aniqlaydi;

Xalqaro terrorchilik tashkilotlari va uyushgan jinoiy guruhlar tomonidan amalga oshiriladigan odam savdosi bilan bog'liq jinoyat ishlari bo'yicha surishtiruv hamda dastlabki tergov o'tkazadi;

Odam savdosi bilan shug'ullanuvchi shaxslar va odam savdosidan jabrlanganlar tomonidan O'zbekiston Respublikasining davlat chegarasini kesib o'tishga urinishlarning oldini olish, ularni aniqlash va ularga chek qo'yish choralarini ko'radi.

O`zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirligi, O`zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari odam savdosiga qarshi kurashish sohasida:

Odam savdosidan jabrlangan, O`zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida turgan O`zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish faoliyatini amalga oshiradi;

Odam savdosidan jabrlanganlarni O`zbekiston Respublikasiga qaytarishga ko`maklashadi, ularda O`zbekiston Respublikasi fuqarolarining shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar bo`lmagan taqdirda esa, belgilangan tartibda ularning shaxsini aniqlash choralarini ko`radi hamda ularga konsullik yig`imlari va boshqa yig`imlarni undirmasdan O`zbekiston Respublikasiga qaytish huquqini beruvchi hujjatlarni rasmiylashtiradi;

Zarur bo`lgan hollarda chet davlatlarning tegishli vakolatli organlariga O`zbekiston Respublikasining odam savdosiga qarshi kurashish to`g`risidagi qonun hujjatlari haqida ma`lumotlar taqdim etadi;

Odam savdosidan jabrlanganlarga ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini haqida axborot taqdim etadi.

O`zbekiston Respublikasi sog`liqni saqlash vazirligi odam savdosiga qarshi kurashish sohasida odam savdosidan jabrlanganlarga tibbiy va psixologik yordam ko`rsatishni belgilangan tartibda tashkil etadi.

Odam savdosiga qarshi kurashish bo`yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlariga qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar ham berilishi mumkin.

Davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, mansabdor shaxslar, shuningdek fuqarolar odam savdosiga qarshi kurashish bo`yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlariga ko`maklashadi hamda zarur yordam ko`rsatishlari lozim.

Qonunda shuningdek, odam savdosidan jabrlanganlarga yordam ko`rsatish va ularni himoya qilish maqsadida O`zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasi tomonidan odam savdosidan jabrlanganlarga yordam ko`rsatuvchi va ularni himoya qiluvchi ixtisoslashtirilgan muassasalar tashkil etilishi ko`rsatib qo`yilgan.

Ixtisoslashtirilgan muassasalarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Odam savdosidan jabrlanganlarga qulay yashash va shaxsiy gigiena sharoitlarini ta`minlash;

Odam savdosidan jabrlanganlarni oziq-ovqat, dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta`minlash;

Odam savdosidan jabrlanganlarga shoshilinch tibbiy, psixologik, ijtimoiy, yuridik va boshqa xil yordam berish;

Odam savdosidan jabrlanganlarning xavfsizligini muhofaza qilish;

Odam savdosidan jabrlanganlarning qarindoshlari bilan aloqa o`rnatilishiga ko`maklashish;

Odam savdosidan jabrlanganlarning huquqlari va qonuniy manfaatlari haqida axborot berish;

Odam savdosidan jabrlanganlarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilishga ko`maklashish.

Ixtisoslashtirilgan muassasalar o`z faoliyatini O`zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan nizomga muvofiq amalga oshiradi.

O`zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 2008 yil 5 noyabrdagi 240-son qarori bilan “odam savdosi jabrdiydalariga yordam berish va ularni himoya qilish bo`yicha Respublika rehabilitatsiya markazi” tashkil qilingan. Markaz O`zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofazalash vazirligining tarkibiy bo`linmasi sifatida tashkil qilingan bo`lib, shu bilan birga mazkur vazirlik zimmasiga odam savdosi qurbonlarini ijtimoiy rehabilitatsiyasi bilan bog`liq barcha ishlarga rahbarlik qilish vazifasi yuklatilgan.

Odam savdosidan jabrlanganlarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish, ularni normal turmush tarziga qaytarish maqsadida amalga oshiriladi va mazkur shaxslarga yuridik yordam berish, ularni psixologik, tibbiy, kasbiy reabilitatsiya qilish, ularni ishga joylashtirish, ularga vaqtinchalik turar joy berishni o'z ichiga oladi.

Odam savdosidan jabrlanganlarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti mablag'lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Odam savdosidan jabrlanganlarni ijtimoiy reabilitatsiya qilishni amalga oshirish tartibi O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Ixtisoslashtirilgan muassasalarning rahbarlari ularda odam savdosidan jabrlangan bolalar haqida ma'lumot paydo bo'lgan taqdirda, qonun hujjatlariga muvofiq odam savdosidan jabrlangan bolalarning huquqlarini ta'minlash va himoya qilish maqsadida bu haqda vasiylik va homiylik organlariga darhol xabar qilishi shart.

Odam savdosidan jabrlangan bolalar ixtisoslashtirilgan muassasalarga joylashtirilganda ular katta yoshdagilardan alohida turishlari kerak. Ixtisoslashtirilgan muassasalarga joylashtirilgan odam savdosidan jabrlangan bolalarga qonun hujjatlariga muvofiq davlat ta'lim muassasalariga qatnash imkoniyati beriladi.

Agar odam savdosidan jabrlangan bolalar ota-onasi qaramog'idan mahrum bo'lgan bo'lsa yoki o'z oilasi turgan joydan bexabar bo'lsa, ularning ota-onasini yoki ota-onasining o'rnini bosuvchi shaxslarni qidirish choralari ko'riladi.

Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud'ya odam savdosida gumon qilinayotgan shaxslarni aniqlash maqsadida huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilish xohishini bildirgan odam savdosidan jabrlangan shaxsga nisbatan O'zbekiston Respublikasining jinoyat-protsessual kodeksida nazarda tutilgan xavfsizlik choralarini ko'radi. Agar odam savdosidan jabrlangan chet el

fuqarosi yoki fuqaroligi bo`lmagan shaxs O`zbekiston Respublikasining jinoyat-protsessual kodeksiga muvofiq jabrlanuvchi deb topilgan bo`lsa yoki jinoyat ishi bo`yicha guvoh bo`lsa yoxud odam savdosida gumon qilinayotgan shaxslarni aniqlashda tegishli organlarga yordam berayotgan bo`lsa, surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning, sud`yaning asoslantirilgan iltimosnomasiga ko`ra bunday shaxsga nisbatan odam savdosida aybdor shaxslar xususida jinoyat ishi bo`yicha qaror chiqarilguniga qadar, deportatsiya choralari qo`llanilishi mumkin emas. Bunda odam savdosidan jabrlangan shaxsga uning O`zbekiston Respublikasiga kirishi holatlaridan qat`i nazar, O`zbekiston Respublikasida vaqtincha bo`lish huquqi berilishi kerak.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan xavfsizlik choralari quyidagi hollarda bekor qilinishi mumkin:

Odam savdosidan jabrlangan qaysi shaxslarga nisbatan tezkor-qidiruv tadbirlari, surishtiruv, dastlabki tergov yoki sud muhokamasi o`tkazilayotgan bo`lsa, shu shaxslar bilan aloqani ularning majburlovisiz tiklagan bo`lsa;

Shaxsning huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilishga bo`lgan xohishi yolg'on ekanligi yoxud shaxsning javobgarlikdan bo`yin tovlash usuli ekanligi ishonchli tarzda aniqlangan bo`lsa.

Odam savdosidan jabrlanganlar majburlov yoki tahdid ostida sodir etilgan qilmish uchun fuqarolik, ma`muriy va jinoiy javobgarlikdan O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ozod qilinadi.



### **3.2. Odam savdosi jabrdiydalarini ijtimoiy reabilitatsiyasining O`zbekiston modeli**

Dunyo hamjamiyatida millati, dini va boshqa ijtimoiy hususiyatlaridan qat`iy nazar insoniyat uchun katta havf solib, tobora avj olib borayotgan global muammo sifatida odam savdosi ertangi taraqqiyotga katta havf solib kelmoqda. Bugun esa uning oldini olish va undan jabr ko`rgan shaxslarni ijtimoiy himoyalash masalasida nafaqat milliy qonunchilik, balki, xalqaro huquq normalariga ham tayanilmoqda.

O`zbekiston Respublikasining asosiy qonuni hisoblangan konstitutsiyasining 24-moddasida yashash insonning uzviy huquqi ekani va inson hayotiga suiqasd qilish eng og`ir jinoyat sifatida baholanishi<sup>1</sup>, islom olamida “Qur`oni Karim”dan keyin asosiy manba hisoblangan muqaddas hadislarda ham “banda faqat alloh huzurida mutloq qul, boshqalar oldida esa mutloq xurdir” deya e`tirof etilganligi odam savdosi ham ilmiy ham diniy nuqtai nazardan inson hayotini eng oliy qadriyat hisoblanishini paymol etilishini namoyon etadi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash bo`yicha 2000-yil qabul qilingan «odamlar, ayniqsa, ayollar va bolalar savdosini to`xtatish, oldini olish va uning uchun jazo to`g`risida»gi bayonnomada odam savdosining oldini olish va unga qarshi kurashishning samarali choralarini ko`rish belgilab berilgan.

Odam savdosiga qarshi kurashish faoliyatini takomillashtirish hamda mazkur bayonnomaning qoidalarini milliy qonunchilikka singdirish maqsadida 2008-yilning 17-aprelida «odam savdosiga qarshi kurashish to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi. Bu qonunda «odam savdosi» va

---

<sup>1</sup> O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi -T.: -O`zbekiston, 203, – B.12.

«odamlardan foydalanish» tushunchalari belgilangan, odam savdosiga qarshi kurashish tizimning tashkil etilishi tartibi, vakolatli organlar va ularning vazifalari, shuningdek odam savdosi qurbonlarining himoyasi va ijtimoiy-huquqiy rehabilitatsiyasi masalalari yoritilgan. Jumladan, odam savdosi bu kuch bilan tahdid qilish yoki kuch ishlatish yohud boshqa majburlash shakllaridan foyalanish, o'g'irlash, firibgarlik, aldash, hokimiyatni suiste'mol qilish yoki vaziyatning qaltisligidan foydalanish orqali yohud boshqa shaxsni nazorat qiluvchi shaxsning roziligini olish uchun uni to'lovlar yoki manfaatdor etish evaziga og'dirib olish orqali odamlardan foydalanish maqsadida ularni yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish. Odamlardan foydalanish boshqa shaxslarning fohishaligidan foydalanishni yoki ulardan shaxvoniy foydalanishning boshqa shakllarini, majburiy mehnat yoki xizmatlarni, qullik yoki qullikka o'hshash odatlarni, erksiz holat yohud inson a'zolari yoki to'qimalarini ajratib olishni anglatadi.<sup>1</sup>

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 5-noyabrdagi 240-sonli qaroriga ko'ra, odam savdosi jabrdiydalarini normal hayot tarziga qaytarish maqsadida ularga ijtimoiy, tibbiy va boshqa yordam ko'rsatish tizimini jahon standartlariga mos, zamonaviy tarzda tashkil etishga qaratilgan "odam savdosi jabrdiydalariga yordam berish va ularni himoya qilish bo'yicha Respublika rehabilitatsiya markazi" tashkil etilgan edi. Uning asosiy vazifalari va funksiyalari etib quyidagilar belgilandi:

- Odam savdosi jabrdiydalarini qulay yashash va shaxsiy gigiena shart-sharoitlari, shuningdek oziq-ovqat, dorivor vositalar va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlash;
- Odam savdosi jabrdiydalariga kechiktirib bo'lmaydigan tibbiy, psixologik, ijtimoiy, yuridik va boshqa yordam ko'rsatish;
- Odam savdosi jabrdiydalari xavfsizligini ta'minlash;

---

<sup>1</sup> Tillaboyev M. Odam savdosi asr vabosi. // "Yoshlar va ayollarning mehnat qonunchiligi bo'yicha huquqiy bilim va madaniyatini shakllantirish" mavusidagi mintaqaviy ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. -namangan. 2010. -B. 52 .

- Odam savdosi jabrdiydalarining qarindoshlari bilan muloqot o`rnatishida ko`maklashish;
- Odam savdosi jabrdiydalariga, ularning qarindoshlariga va vasiylariga odam savdosi jabrdiydalarining huquqlari va qonuniy manfaatlari to`g`risida axborot berish.<sup>1</sup>

O`zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofazalash vazirligining tarkibiy bo`linmasi sifatida tashkil etilgan mazkur markaz to`liq davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirilishi xususiyatiga ko`ra, shu turdagi muassasalar ichida dunyoda yagonasi hisoblanadi. Maxsus reabilitatsiya markazlari boshqa davlatlar tajribalarida xalqaro yoki milliy xayriya tashkilotlari tarkibidadir. Masalan, Moskva shahrida joylashgan Rossiya Federatsiyasidagi yagona markaz ham, xalqaro mehnat tashkiloti moliyalashtirganida faoliyat yuritib, boshqa paytlarda ishlamay turadi.

Odam savdosi jabrdiydalari reabilitatsiya markazidan chiqqanlaridan keyin normal turmush tarziga to`liq qaytgunlariga qadar yuridik maslahat berish, tibbiy jihatdan qo`llab-quvvatlash bo`yicha reabilitatsiya markazi xizmatlaridan foydalanishlari mumkin.

Respublika reabilitatsiya markazi o`z faoliyatini quyidagi asosiy tamoyillar asosida amalga oshiradi:

Odam savdosi jabrdiydalarining kamsitilishiga yo`l qo`ymaslik;

Odam savdosi jabrdiydalarining shaxsiy hayoti va shaxsi maxfiyligiga rioya qilish;

Ijtimoiy va yuridik qo`llab-quvvatlash hamda yakka tartibda parvarish qilish.

Respublika reabilitatsiya markazi odam savdosi qurbonlariga kompleks xizmatlar ko`rsatadi.

Odam savdosi qurbonlarini Respublika reabilitatsiya markaziga joylashtirish ularning ixtiyoriy xohishi hamda reabilitatsiya markazining

---

<sup>1</sup> O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami, Toshkent, 2008. 44-45-son, 445-modda.

direktori, ichki ishlar organlari hamda vasiylik va homiylik organlari vakillari tomonidan qabul qilinadigan qo`shma qaror asosida amalga oshiriladi.

Mijozlar markazga o`ttiz kun muddatgacha joylashtiriladi. Zaruriyat bo`lganda ularning yashash muddati uch oy muddatgacha uzaytirilishi mumkin. Agar odam savdosi jabrdiydalarining hayoti va sog`lig`iga xavf tug`ilsa yashash muddati ko`rsatib o`tilgan jabrdiydalarni himoya qilish uchun zarur deb hisoblangan davrga uzaytiriladi.

Odam savdosi qurbonlariga rehabilitatsiya markazini ularning o`zlarining yozma murojaatlariga muvofiq o`z xohishi bilan tark etish huquqi beriladi.

Respublika rehabilitatsiya markazi odam savdosi jabrdiydalari bo`lgan erkaklar va ayollarni, shuningdek bolalarni alohida joylashtiradi.

Markaz odam savdosi qurbonlariga:

Kechiktirib bo`lmaydigan tibbiy, psixologik, ijtimoiy, yuridik va boshqa yordam beradi;

Huquqlari va qonuniy manfaatlari to`g`risida axborot taqdim etadi;

Xavfsizligini ta`minlaydi;

Ovqatlanish, dorivor vositalar va tibbiy buyumlar bilan ta`minlaydi;

Qulay yashash sharoitlari va shaxsiy gigiena bilan ta`minlaydi;

Qarindoshlar bilan aloqa o`rnatishga ko`maklashadi;

Odam savdosi jabrdiydalari ijtimoiy rehabilitatsiya qilinishiga ko`maklashadi.

Odam savdosining har bir jabrdiydasiga sog`liqning holatini kompleks tekshirib chiqish va baholash natijalari, ijtimoiy, psixologik, yuridik va boshqa yordam zarurligi bo`yicha ishlab chiqiladigan har bir shaxsni rehabilitatsiya qilish rejasi asosida yordam ko`rsatiladi. Har bir mijozni rehabilitatsiya qilish rejasining yagona shakli Respublika rehabilitatsiya markazi tomonidan ishlab chiqiladi hamda O`zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Respublika rehabilitatsiya markazi yoki rehabilitatsiya qilishda qatnashuvchi boshqa idoralarning mutaxassislari, zaruriyatga ko`ra, rehabilitatsiya jarayonida

odam savdosi jabrdiydalariga tibbiy, ijtimoiy, psixologik, yuridik va boshqa yordam ko`rsatish yuzasidan rehabilitatsiya jarayoniga tuzatish kiritish maqsadida har bir shaxsni rehabilitatsiya qilish rejasiga tegishli o`zgartirishlar kiritishi mumkin.

Rehabilitatsiya chora-tadbirlari bajarilgandan keyin rehabilitatsiya markazi rahbariyati tomonidan mutasaddi vrach bilan birgalikda har bir shaxsni rehabilitatsiya qilish rejasiga muvofiq amalga oshirilgan rehabilitatsiya natijalari baholanadi.

Ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam (atrofdagilar uchun xavf tug`diradigan narkologiya, psixiatriya, dermovenerologiya, sil, yuqumli kasalliklar va boshqalar) belgilangan tartibda tegishli ixtisoslikdagi ixtisoslashtirilgan tibbiyot muassasalarida ko`rsatiladi.

Odam savdosi qurbonlari rehabilitatsiya markazida bo`lgan davrda, agar bu ularning manfaatlariga zid bo`lmasa, yaqin qarindoshlar, qonuniy vakillar bilan munosabatlar o`rnatish va ularni saqlab turish shart-sharoitlari ta`minlanadi.

Mijozlarni rehabilitatsiya markazidan chiqarishga tayyorlash ichki ishlar organlari hamda vasiylik va homiylik organlari bilan hamkorlikda markazning mas`ul xodimi kuzatuv ostida amalga oshiriladi.

Odam savdosi jabrdiydalarini rehabilitatsiya markazidan chiqqanlaridan keyin normal turmush tarziga to`liq qaytgunlariga qadar yuridik maslahat berish, tibbiy jihatdan qo`llab-quvvatlash bo`yicha rehabilitatsiya markazi xizmatlaridan foydalanishlari mumkin.

Odam savdosi jabrdiydalarini ijtimoiy rehabilitatsiya qilish ichki ishlar organlari hamda vasiylik va homiylik organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, sog`liqni saqlash vazirligi, adliya vazirligi, xalq ta`limi vazirligi, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi bo`linmalari bilan hamkorlikda rehabilitatsiya markazi tomonidan ta`minlanadi.

Ichki ishlar organlari hamda vasiylik va homiylik organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, sog`liqni saqlash vazirligi, adliya vazirligi, xalq ta`limi vazirligi, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi

bo`linmalari Respublika reabilitatsiya markazining buyurtmanomalari bo`yicha odam savdosi jabrdiydalariga:

- Odam savdosi jabrdiydalarining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qiluvchi mavjud sud tartib-qoidalar va ma`muriy tartib-qoidalar to`g`risida maqbul shakldagi axborotni taqdim etadilar va boshqa zarur yuridik yordamni ko`rsatadilar;
- Tibbiy ko`rikdan o`tish va mutaxassisning maslahat berishi vositasida malakali psixologik va tibbiy yordam beradilar;
- Professional jihatdan reabilitatsiya qilinishda va ishga joylashishda ko`maklashadilar;
- Odam savdosi jabrdiydalarining bolalari ta`lim muassasalariga qatnashini ta`minlaydilar.

Odam savdosi jabrdiydasi qaytarilgan oila ustidan, unga nisbatan odam savdosi takroran sodir etilishining oldini olish maqsadida, bir yil mobaynida monitoring olib borilishi kerak. Monitoring mobaynida reabilitatsiya markazi, ichki ishlar organlari hamda vasiylik va homiylik organlari mutaxassislari tomonidan shaxs qaytgandan keyin uning oiladagi holati baholanadi.

O`zbekiston Respublikasining “Odam savdosiga qarshi kurashish samaradorligini oshirish bo`yicha chora-tadbirlari to`g`risida”gi qonuni, O`zbekiston Respublikasi prezidentining 2008-yil 8-iyuldagi “odam savdosiga qarshi kurashish samaradorligini oshirish bo`yicha chora tadbirlari to`g`risida”gi pq-911-sonli qarori hamda O`zbekiston Respublikasi sog`liqni saqlash vazirligining 322-buyrug`i ijrosini ta`minlanishi asosida odam savdosi jabrdiydalarini tibbiy va psixologik hizmat ko`rsatish tizimi shakllantirildi va uni amalga oshiruvchi doimiy guruhlar faoliyati yo`lga qo`yildi.

## Xulosa

XIX asr oxirlarida alohida kasb sohasi sifatida shakllanib boshlagan ijtimoiy ish xodimlari insoniyatning hayotini engillashtirish, xususan turli murakkab vaziyatlarga tushib qolgan insonlarni to'g'ri yo'lga tushib olishida va qiyinchiliklardan chiqib ketishida ko'maklashishdek, savobli ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Ana shunday murakkab vaziyatlar sababli o'z erkini yo'qotib, jinoyatchilar qo'lida qo'g'irchoqqa aylanib qolgan ayrim yurtdoshlarimizni normal hayotga qaytarish va ularni ijtimoiy hayotga qayta moslashtirish ishi davlatimiz va hukumatimizning diqqat markazida turgan dolzarb muammolardan biriga aylanib qoldi.

Aslida juda qadimiy bo'lgan bir insonni ikkinchi bir inson tomonidan qulga aylantirilishi hodisasini:

- Butun dunyoda keng tarqalgan va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning asosini tashkil qilgan mumtoz davr;
- Islom dini a'siri ostida yangicha yondashuv va yangicha qiyofaga ega bo'lgan davr;
- Amerika qit'asining kashf qilinishi bilan yangi to'lqin hosil qilgan o'rta asrlar quldorligi;
- XX asr ikkinchi yarmidan boshlab, uyushgan jinoyatchilikning asosiy daromad manbalaridan biriga aylanib, yana yangi qiyofaga kirgan zamonaviy qulchilik va odam savdosi davri.

XIX asr oxiri va XX asr boshlaridan boshlab, butun dunyoda inson huquqlarini himoyalash, barcha insonlarning tengligi va ozodligi uchun kurashlar silsilasida qullikka qarshi kurash ham keng avj oldi. Ayniqsa, xalqaro tashkilotlar orqali uning huquqiy asoslarini yaratishga intilish, davlatlarning inson ozodligini ta'minlashdagi mas'uliyatini oshirish yo'lidagi harakatlar kuchaydi.

Bugungi kunda odam savdosi inson huquqlarini ta`minlash, xalqaro uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash, inson, ayniqsa insoniyatning zaif qatlami bo`lgan ayollar va bolalarga nisbatan turli zo`ravonliklarning oldini olish kabi muammolar bilan bog`liq bo`lgan mazkur hodisa dunyo jamoatchiligini chuqur tashvishlantirayotganligi, barcha davlatlarning o`zaro hamkorlikda faoliyat yuritishlarini talab qilayotganligi sababli, Birlashgan Millatlar Tashkilotining eng ko`p e`tibor qaratilayotgan faoliyat yo`nalishlaridan biriga aylanib qoldi.

O`zbekiston Respublikasida inson huquqlarini ta`minlash yo`nalishida olib borilayotgan siyosatining asosiy tarkibiy qismlaridan birini tashkil qiluvchi – qullikning har qanday ko`rinishlariga qarshi kurash ishi 2008 yilda qabul qilingan “odam savdosiga qarshi kurash to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasi qonuni asosida amalga oshirilmoqda. Mazkur qonunning 3-moddasiga ko`ra, odam savdosi deganda “kuch bilan tahdid qilish yoki kuch ishlatish yoxud boshqa majburlash shakllaridan foydalanish, o`g`irlash, firibgarlik, aldash, hokimiyatni suiiste`mol qilish yoki vaziyatning qaltisligidan foydalanish orqali yoxud boshqa shaxsni nazorat qiluvchi shaxsning roziligini olish uchun uni to`lovlar yoki manfaatdor etish evaziga og`dirib olish orqali odamlardan foydalanish maqsadida ularni yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish. Odamlardan foydalanish boshqa shaxslarning fohishaligidan foydalanishni yoki ulardan shahvoniy foydalanishning boshqa shakllarini, majburiy mehnat yoki xizmatlarni, qullik yoki qullikka o`xshash odatlarni, erksiz holat yoxud inson a`zolari yoki to`qimalarini ajratib olish” tushuniladi.

Mazkur jinoyatga qarshi kurash bo`yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari: O`zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi; O`zbekiston Respublikasi milliy xavfsizlik xizmati; O`zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirligi, O`zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari; O`zbekiston Respublikasi sog`liqni saqlash vazirligi va boshqa turli vazirliklar, qo`mitalar va boshqa davlat muassasalari hisblanadilar. Ushbu



tizimga rahbarlik qilish maxsus idoralararo komissiyaga topshirilgan bo`lib, uning raisi esa, O`zbekiston Respublikasi bosh prokurori hisoblanadi.

Odam savdosi kabi manfur jinoyatning qurbonlari alohida e`tibortalab insonlar sifatida ijtimoiy ish sohasining tadqiqot ob`ekti hisoblanadilar. Bugungi kunda O`zbekiston Respublikasida mazkur insonlarni ijtimoiy hayotga qayta moslashtirish O`zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 2008-yil 5-noyabrdagi 240-sonli qaroriga ko`ra tashkil etilgan “odam savdosi jabrdiydalariga yordam berish va ularni himoya qilish bo`yicha Respublika reabilitatsiya markazi” tomonidan amalga oshiriladi. Markazning asosiy vazifalari va funksiyalari: odam savdosi jabrdiydalarini qulay yashash va shaxsiy gigiena shart-sharoitlari, shuningdek oziq-ovqat, dorivor vositalar va tibbiyot buyumlari bilan ta`minlash; odam savdosi jabrdiydalariga kechiktirib bo`lmaydigan tibbiy, psixologik, ijtimoiy, yuridik va boshqa yordam ko`rsatish; odam savdosi jabrdiydalari xavfsizligini ta`minlash; odam savdosi jabrdiydalarining qarindoshlari bilan muloqot o`rnatishida ko`maklashish; odam savdosi jabrdiydalariga, ularning qarindoshlariga va vasiylariga odam savdosi jabrdiydalarining huquqlari va qonuniy manfaatlari to`g`risida axborot berishdan iborat.

Odam savdosi qurbonlari bilan ijtimoiy xizmatni tashkil etishda markaz ijtimoiy xodimi tomonidan quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- Ijtimoiy reabilitatsiya, ya`ni jabrdiydaning ijtimoiy munosabatlari va mavqei qayta tiklanishiga ko`maklashish;
- Imkon darajasida turar joy hamda boshpana bilan ta`minlanishiga erishish;
- Oilasiga qaytarish, qarindoshlari bilan aloqalarni tiklash, bolalarini olib berish;
- Ta`lim olish va kasbga yo`naltirish;
- Ish bilan ta`minlash;
- Hujjatlarini qayta tiklash;
- Turli muassasalar bilan munosabatlarini o`rnatishiga ko`maklashish;

- Mijozlarning haq-huquqlarini himoya qiladi, ularga o`z haq-huquqlaridan foydalanish, ijtimoiy munosabatlarga kirishish va mavqeyini tiklash bo`yicha malkaga ega bo`lishiga ko`maklashadi, ularni o`qitadi;
- Mijoz haqida axborot to`plash, qayta ishlash va axborot almashish.

Markazga murojaat etgan yoki keltirilgan jabrdiydalar to`liq ijtimoiy reabilitatsiya qilinmagunlaricha, barcha ijtimoiy munosabatlari va mavqesi tiklanmaguncha hamda jamiyatda o`z o`rnini topib, o`z hayotini bir me`yorga tushirib olishga erishmagunlaricha, ijtimoiy xizmat xodimi nazorati ostida bo`ladi. Markazning barcha mijozlari yuqorida sanab o`tilgan holatlar bo`yicha ijtimoiy xizmat xodimiga istalgan vaqtda murojaat etishlari mumkin.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

### **I.O'zbekiston Respublikasi Qonunlari va huquqiy normalar**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi -T.: -O'zbekiston, 2012.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 6 fevraldagi PQ-2124-sonli "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori // Turkiston. 2014 yil 8 fevral.
3. O'zbekiston Respublikasining qonuni. "odam savdosiga qarshi kurash to'g'risida". 2008 yil. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. "Odam savdosiga qarshi kurashish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida". Pq №911. 2008 yil.

### **II. Rahbariy adabiyotlar**

5. Sh.M.Mirziyoyev. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". Toshkent. O'zbekiston, 2016-56 b.
6. Sh.M.Mirziyoyev. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intozom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". Toshkent. O'zbekiston, 2017-104 b.
7. Sh.M.Mirziyoyev. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi". Toshkent. O'zbekiston, 2017-48 b.
8. Sh.M.Mirziyoyev. "Buyuk kelajagimizni mard va olijaanob xalqimiz bilan birga quramiz". Toshkent. O'zbekiston, 2017-488 b.
9. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. - T.:O'zbekiston, 2011.

10. Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. T.19. -T.:O`zbekiston, 2011.
11. Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta`minlash – bizning oliy maqsadimiz. T.17. - T.:O`zbekiston, 2009.
12. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – engilmas kuch. T.: «Ma`naviyat», 2008.
13. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o`z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat`iy irodamizga bog`liq. T.12. -T.:O`zbekiston, 2004.
14. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.10. - T.:O`zbekiston, 2002.
15. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo`lida. T.6. - T.:O`zbekiston, 1998.
16. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3.-T.:O`zbekiston, 1996 y.
17. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin.T. 2.- T.:O`zbekiston,1996 y.
18. Karimov I. A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotininng asosiy mezonidir. 19- jild. – T.: O`zbekiston, 2011. – 345 b.
19. Karimov I. A. Tarixiy xotira va inson omili – buyuk kelajagimizning garovidir. – T.: O`qituvchi, 2011. – 144 b.
20. Karimov I. A. Bizning yo`limiz demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo`lidir. – T.: O`zbekiston, 2012. – 312 b.
21. Karimov I. A. Mustaqillik – barcha ezgu reja va marralarimizning mustahkam mezonidir // O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A.

Karimovning davlat mustaqilligining 22 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so'zi. Xalq so'zi. 2013 yil 2 sentyabr.

22. Karimov I. A. Amalga oshirilayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug' kelajagimizning asosiy omilidir // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. O'zbekiston ovozi. 2013 yil 10 dekabr.
23. Karimov I. A. Tinchlik va ahillik – mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligimiz asosidir // O'zbekiston Respublikasi I. A. Karimovning 9-may "Xotira va qadrlash kuni" munosabati bilan so'zlagan nutqi. O'zbekiston ovozi 2014 yil 10 may.

### **III. Asosiy adabiyotlar**

24. Belyaeva L. I., Kulakova N. G. Torgovlya nesovershennoletnimi i meri bor'bi s ney / in-t «otkritoe obshestvo» (fond sorosa); programma «pravo». – m.: xronos-press, 2002. – 134s.
25. Boytsova O.YU., solodovnikova m.i. Torgovlya lyud'mi. Informatsionniy spravochnik. Kaliningrad, 2006.
26. Buryak M. YU. Torgovlya lyud'mi i bor'ba s ney (kriminologicheskie i ugolovno- pravovie aspekti) [tekst] : avtoref. Dis. ... Kand. YUrid. Nauk. Vladivostok, 2005. - 31 s.
27. Gobedjishvili L. G. Protsessi trudovoy migratsii v kontekste institutsional'no-pravovogo obespecheniya natsional'noy bezopasnosti sovremennoy rossi: avtoref. Dis. ... Kand. YUrid. Nauk. Rostov-na-donu, 2005. - 22 s.
28. Gromov S.V. Nekotorie voprosi kvalifikatsii prestupleniy: torgovlya lyud'mi i ispol'zovanie rabskogo truda // rossiyskiy sledovatel'. –2005. – №3.
29. Evstifeeva E.V. Teoreticheskie problemi ugolovno-pravovoy otvetstvennosti za torgovlyu lyud'mi: dis. ... Kand. YUrid. Nauk. - saratov, 2002.

30. Jinkin A.A. Torgovlya lyud'mi i ispol'zovanie rabskogo truda: problemi kvalifikatsii i sootnoshenie so smejnimi sostavami prestupleniy. Diss. ... kand. YUrid. Nauk. – krasnodar, 2005. – 189s.
31. Ijtimoiy ishda axloq kodeksi. [Http://www.basw.co.uk](http://www.basw.co.uk)
32. Kislova E. A. Ugolovno-pravovie sredstva protivodeystviya rabstvu i torgovle lyud'mi: avtoref. Dis. ... Kand. YUrid. Nauk. M., 2005. - 31 s.
33. Konventsiya ligi natsiy "o rabstve". / sbornik metodicheskix posobiy po voprosam bor'bi c torgovley lyud'mi. Oon, n'yu-york, 2008.
34. Materiali mejdunarodnoy konferentsii «sovershenstvovanie mejdunarodnogo sotrudnichestva v protivodeystvii torgovle lyud'mi». Moskva, 29–30 sentyabrya 2009 goda.
35. Mejdunarodno-pravovie osnovi bor'bi s nezakonnoy migratsiyey i torgovley lyud'mi: sb. Dok. / sost. V.s. Ovchinskiy. – M.: infra-m, 2004. – 298s.
36. Metelev E. Kriminal'naya migratsiya: xarakteristika i preduprezhdenie: dis. ... Kand. YUrid. Nauk. -omsk, 1997.
37. Organizovannaya prestupnost', terrorizm, korruptsiya v ix proyavleniyax i bor'ba s nimi / pod redaktsiyey professora a.i. Dolgovoy. - m., rossiyskaya kriminologicheskaya assotsiatsiya, 2005. - s.303.
38. Partas, V. «la strada-moldova»: opit protivodeystviya torgovle lyud'mi i reabilitatsii postradavshix / v. Partas // trenerskiy portfel'. Problema torgovli lyud'mi: izdanie sroo «tsentr sotsial'noy podderjki jenshin» pri podderjke programmi malix grantov posol'stva ssha v rf. – smolensk, 2006. – s. 150.
39. Podshivalov V.E. Mejdunarodno-pravovie problemi preduprezhdeniya i presecheniya nezakonnoy migratsii: avtoref. Dis. ... Kand. YUrid. Nauk. Spb., 2004. - 24 s.
40. Protokol o preduprezhdenii i presechenii torgovli lyud'mi, osobenno jenshinami i det'mi, i nakazanii za nee, dopolnyayushiy konventsiyu organizatsii ob`edinennix natsiy protiv transnatsional'noy organizovannoy

- prestupnosti. / sbornik metodicheskix posobiy po voprosam bor'bi c  
torgovley lyud'mi. Oon, n'yu-york, 2008.
- 41.Repetskaya a. Klassifikatsiya kriminal'noy ekspluatatsii lyudey i  
problemi ugolovnoy otvetstvennosti za nee // torgovlya lyud'mi.  
Sotsiokriminologicheskiy analiz. – m.: prospekt, 2002. – 361s.
- 42.Rustambaev M.X. Odam savdosi. – T.: TDYUI nashriyoti, 2009.
- 43.Rukovodstvo dlya rabotnikov sferi zdravooxraneniya i sotsial'noy zashiti,  
psixologov, sotsial'nix rabotnikov, spetsialistov organizatsiy,  
okazivayushix pomosh' postradavshim ot torgovli lyud'mi. / pod obshey  
redaktsiey yu.yu. Pavlovskoy, byuro mejdunarodnoy organizatsii po  
migratsii v Moskve. M., 2009.
- 44.Sinitsin F.L. Mejdunarodnoe zakonodatel'stvo po probleme torgovli  
lyud'mi. - perm', 2000.
- 45.Tillaboev M. Odam savdosi asr vabosi. // “yoshlar va ayollarning mehnat  
qonunchiligi bo'yicha huquqiy bilim va madaniyatini shakllantirish”  
mavusidagi mintaqaviy ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. -  
namangan. 2010. -b. 52 .
- 46.Tyuryukanova E.V., Malisheva M.M. Jenshina. Migratsiya. Gosudarstvo.  
- m., 2001.
- 47.Farxodova Z. Odam savdosi – asr vabosi. // inson va qonun. 2012 yil 22  
may. 23-son.

#### **IV. Internet saytlari**

1. <http://ziyonet.uz/>
2. <http://fikr.uz/news/>
3. <http://ziyonet.uz/>
4. <http://fikr.uz/news/>
5. <http://gov.uz/>

**Farg'ona davlat Universiteti Ijtimoiy-iqtisodiy fakulteti**  
**“Ijtimoiy ish” yo’nalishi bitiruvchisi Tursunaliyev Behzodning**  
**“Odam savdosi jabrdiydalarini ijtimoiy reabilitatsiya qilishning sotsiologik**  
**tahlili” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga ilmiy rahbar**

**XULOSASI**

Dunyo hamjamiyatida millati, dini va boshqa ijtimoiy hususiyatlaridan qat’iy nazar insoniyat uchun katta havf solib, tobora avj olib borayotgan global muammo sifatida odam savdosi ertangi taraqqiyotga katta havf solib kelmoqda. Bugun esa uning oldini olish va undan jabr ko`rgan shaxslarni ijtimoiy himoyalash masalasida nafaqat milliy qonunchilik, balki, xalqaro huquq normalariga ham tayanilmoqda.

Bitiruvchi Tursunaliyev Behzod “Odam savdosi jabrdiydalarini ijtimoiy reabilitatsiya qilishning sotsiologik tahlili” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishida O‘zbekiston Respublikasi odam savdosi jabrdiydalarini ijtimoiy hayotga moslashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarni yoritishga harakat qilgan.

Bitiruv malakaviy ish ishi kirish, uch bob, olti paragraf, xulosa va tavsiyalar, hamda foydalanilgan adabiyotlar ro’yhatidan iborat. Ishning birinchi bobi “Odam savdosi tushunchasining qiyosiy-tarixiy, ilmiy-nazariy tahlili” deb nomlanib, ushbu bobda odam savdosi tushunchasi, mazmun va mohiyati, qiyosiy tahlili haqida so’z boradi.

Bitiruv malakaviy ishining ikkinchi bobi esa “Alohida ehtiyojli insonlar guruhlarini ijtimoiy moslashtirish jarayonlari” deb nomlanib, ushbu bobda odam savdosidan aziyat chekkan va oqibatida ijtimoiy hayotga moslashishda qiyinchiliklarga duch kelgan insonlar muammolari manbaalarga asoslangan xolda o’rganib chiqilgan. Malakaviy ishning uchinchi bobi “O‘zbekistonda odam savdosi qurbonlarini ijtimoiy reabilitatsiyasi jarayonining tahlili” deb nomlanib, ushbu bobda mamlakatimizda odam savdosi qurbonlarini ijtimoiy reabilitatsiyasi jarayoni va tahlili atroflicha yoritib berilgan.

Ushbu bitiruv ishini yakunlangan deb hisoblab, himoya uchun tavsiya etish mumkin.



**Ilmiy rahbar:**

**B.Tolibov, “Ijtimoiy ish”  
kafedrasi o’qituvchisi**

**Farg’ona davlat Universiteti Ijtimoiy-iqtisodiy fakulteti**  
**“Ijtimoiy ish” yo’nalishi bitiruvchisi Tursunaliyev Behzodning**  
**“Odam savdosi jabrdiydalarini ijtimoiy reabilitatsiya qilishning**  
**sotsiologik tahlili” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga**

**TAQRIZ**

Odam savdosi jabrdiydalarini ijtimoiy reabilitatsiya qilish ichki ishlar organlari hamda vasiylik va homiylik organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, sog’liqni saqlash vazirligi, adliya vazirligi, xalq ta’limi vazirligi bilan xamkorlikda reabilitatsiya markazi tomonidan ta’minlanadi.

Bugungi kunda odam savdosi inson huquqlarini ta’minlash, xalqaro uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash, inson, ayniqsa insoniyatning zaif qatlami bo’lgan ayollar va bolalarga nisbatan turli zo’ravonliklarning oldini olish kabi muammolar bilan bog’liq bo’lgan mazkur hodisa dunyo jamoatchiligini chuqur tashvishlantirayotganligi, barcha davlatlarning o’zaro hamkorlikda faoliyat yuritishlarini talab qilayotganligi sababli, dunyo hamjamiyatining eng ko’p e’tibor qaratilayotgan faoliyat yo’nalishlaridan biriga aylanib qoldi.

Bitiruvchi Tursunaliyev Behzod “Odam savdosi jabrdiydalarini ijtimoiy reabilitatsiya qilishning sotsiologik tahlili” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishida O’zbekiston Respublikasi odam savdosi jabrdiydalarini ijtimoiy hayotga moslashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarni yoritishga harakat qilgan.

Ushbu bitiruv malakaviy ishini yakunlangan deb hisoblayman. Lekin, ishda ayrim juz’iy kamchiliklar: stilistik va orfografik xatolar ham uchraydi va ular ishning umumiy saviyasiga salbiy ta’sir ko’rsatmaydi. Ishni himoyaga tavsiya etish mumkin deb hisoblayman.

**Taqrizchi:**